4. Адиабатик, изотермик намланиш жараёнлари.

4 - илова

Нам ҳаво хусусиятлари. Нам ҳаво I-d диаграммаси. Иситиш ва совутиш жараёнлари. Адиабатик, изотермик намланиш жараёнлари. Иссиқлик ва нам алманиш. Политропик жараёнлар. Араланиш жараёнлари. Иссиқлик ва масса алманишуви жараёнлари

Ҳоналарда амалга ошириладиган маиший ва технологик жараёнлар одатда зарарликларни ажраб чиқиши билан содир бўлади. Вентиляция техникасида зарарликлар деб, умумлаштирилиб ҳонага ортикча иссиқлик, намлик, газ ва буғлар, шунингдек, ҳаво орқали кирадиган чангларга айтилади. Кондициялашда ҳонадан ифлосланган ҳаво олиниб, тозаси узатилади. Шундай қилиб, вентиляция ва ҳавони кондициялаш жараёнларида ҳаво асосий ишчи мухитдир.

Ҳавонинг хусусиятлари унинг газли таркиби, иссиқлик ва намлик ҳолати, зарарли газлар, буғлар, чанглар мавжудлиги билан аниқланади.

Бизнинг атрофимиздаги ҳаво газлар аралашмасидан ташкил топган : азот газы N_2 (78,13% ҳажми бўйича), кислород O_2 (20,9%), инерт газлар аргон ва бошқалар (0,94%), CO_2 (0,03%)-карбонат ангидрид ва бошқалар.

Қуруқ ҳавони сув буғлари билан аралашмасига нам ҳаво дейилади. Ҳавони кондициялашда нам ҳаво хусусиятлари курилади, чунки ҳавода намликнинг борлиги жараёнлар термодинамикасига ва одамларнинг ўзини яхши ҳис этишига катта таъсир кўрсатади.

Нам ҳаво одатда икки идеал газ аралашмаси деб кўрилади: қуруқ ҳаво ва сув буғлари.

Дальтон қонунига кўра:

$$P_{\text{б}} = P_{\text{к.х.}} + P_{\text{с.б.}}, \text{ Па} \quad (4.1)$$

бу ерда: $P_{\text{б}}$ -барометрик босим, Па (нормал атмосфера босими 101,3кПа); $P_{\text{к.х.}}$, $P_{\text{с.б.}}$ - мос равишда қуруқ ҳавонинг ва сув буғларининг парциал босими, Па.

Идеал газнинг ҳолати Клайперон тенгламаси билан ифодаланади:

$$PV = mRT \quad (4.2)$$

бу ерда: P -босим, Па; V -ҳажм, m^3 ; m -масса, кг; R -газ доимийси, $J/(кг \cdot K)$; T -температура (ҳарорат), K .

Қуруқ ҳаво учун $R_{\text{к.х.}} = 286,69 \text{ кЖ}/(кг \cdot K)$, сув буғлари учун $R_{\text{с.б.}} = 461,89 \text{ кЖ}/(кг \cdot K)$.

Шунинг учун:

$$P_{\text{к.х.}} V = 286,69 m_{\text{к.х.}} T, \quad (4.3)$$

$$P_{\text{с.б.}} V = 461,89 m_{\text{с.б.}} T. \quad (4.4)$$

1. Ҳавонинг таркибий намлиги деб нам ҳавода унинг 1 кг. қуруқ қисмига тўғри келадиган сув буғларининг масса миқдорига айтилади ва d харфи билан белгиланади:

$$d = \frac{m_{\text{с.б.}}}{m_{\text{к.х.}}} 1000 = \frac{\frac{P_{\text{с.б.}} V}{461,89 T}}{\frac{P_{\text{к.х.}} V}{286,69 T}} 1000 = 622 \frac{P_{\text{с.б.}}}{P_{\text{к.х.}}} = 622 \frac{P_{\text{с.б.}}}{P_{\text{б}} - P_{\text{с.б.}}}, \text{ г/кг.} \quad (4.5)$$

2. Ҳавонинг намлик сифими деб тўла тўйинган нам ҳавода унинг 1 кг қуруқ қисмига тўғри келадиган сув буғларининг масса миқдорига айтилади ва d_T харфи билан белгиланади

$$d_T = \frac{m_{c.b.}^T}{m_{k.x.}} 1000 = 622 \frac{P_{c.b.}^T}{P_{k.x.}} = 622 \frac{P_{c.b.}^T}{P_b - P_{c.b.}^T}, \text{ г/кг.} \quad (4.6)$$

3. Ҳавонинг нисбий намлиги деб бир ҳил температура (хароратда) нам ҳаводаги сув буғларининг ҳақиқий парциал босимини тўла тўйинган сув буғларининг парциал босимига бўлган нисбатига айтилади ва φ харфи билан белгиланади:

$$\varphi = \frac{P_{c.b.}}{P_{c.b.}^T} 100\% = \frac{d}{d_T} 100\% \quad (4.7)$$

бу ерда: φ -ҳавонинг сув буғлар билан тўла тўйинган ҳолатига нисбатан тўйиниш даражасини фоизлар ҳисобида кўрсатади; $P_{c.b.}$ -тўла тўйинган сув буғларининг парциал босими фақат температурага (хароратга) боғлиқ.

4. Ҳавонинг зичлиги, ρ , кг/м³:

куруқ қисми учун

$$\rho_k = \frac{m_k}{V} = \frac{\frac{P_k V}{R_k T_k}}{V} = \frac{P_{k.x.}}{R T_{k.x.}} = \frac{0,003488(P_b - P_{c.b.}^k)}{T}, \text{ кг/м}^3 \quad (4.8)$$

сув буғлари учун

$$\rho_{c.b.} = \frac{m_{c.b.}}{V} = \frac{\frac{P_{c.b.} V}{R_{c.b.} T}}{V} = \frac{P_{c.b.}}{R_{c.b.} T} = 0,002165 \frac{P_{c.b.}}{T}, \text{ кг/м}^3 \quad (4.9)$$

нам ҳаво учун

$$\begin{aligned} \rho &= \frac{m_{k.x.} + m_{c.b.}}{V} = \frac{1}{T} [0,003488(P_b - P_{c.b.}^k) + 0,002165 P_{c.b.}] = \\ &= \frac{1}{T} (0,003488 P_b + 0,001323 P_{c.b.}), \text{ кг/м}^3 \end{aligned} \quad (4.10)$$

бу ерда: T -нам ҳавонинг температураси, K ; P_b , $P_{c.b.}$ - мос равишда атмосфера ва сув буғларининг босими, Па.

5. Нам ҳавонинг иссиқлик сиғими унинг куруқ қисми ва сув буғларининг иссиқлик сиғимлари йиғиндисига тенг:

куруқ қисми учун $C_{к.к.} = 1,005 \text{ кЖ/(кг}\cdot\text{К)}$,

сув буғлари учун

$$\frac{C_{c.b.} d}{1000} = \frac{1,8d}{1000} = 0,0018d, \text{ кЖ/(кг}\cdot\text{К)}. \quad (4.11)$$

6. Ҳавонинг энтальпияси (иссиқлик миқдори).

Ҳаводаги иссиқлик миқдорини кўрсатади ва I харфи билан белгиланиб, кЖ/(кг куруқ ҳаво) бирлигида ўлчанади.

Куруқ ҳаво энтальпияси

$$I_{к.к.} = C_{к.к.} \cdot t = 1,005 \cdot t, \text{ кЖ/кг.} \quad (4.12)$$

Сув буғларининг энтальпияси

$$I_{c.b.} = r + 1,8 t, \text{ кЖ/кг} \quad (4.13)$$

бу ерда r -буғланиш иссиқлиги, 0°C да $r = 2500$ кЖ/кг тенг.

Нам ҳавонинг энтальпияси унинг қуруқ ва нам қисмларининг энтальпиялари йигиндисига тенг:

$$I = I_{kx} + I_{cb} \frac{d}{1000} = 1,005t + (2500 + 1,8t) \frac{d}{1000}, \text{кЖ}/(\text{кг қуруқ ҳаво}) \quad (4.14)$$

Масалан: $t = 0^\circ\text{C}$ ва $d = 0$ г/кг бўлганда ҳавонинг энтальпияси нолга тенг, шунинг учун энтальпия хисоби $t = 0^\circ\text{C}$ дан олиб борилади.

Нам ҳавонинг I-d- диаграммаси

Бу диаграмма ҳавонинг ҳамма параметрларини бир-бири билан боғлайди. Диаграммани 1918 йилда проф. Л.К. Рамзин таклиф этган.

Қия бурчак координат системасида қурилади, абсцисса ва ордината ўқлари орасидаги бурчак 135° га тенг (4.1-расм).

Абсцисса ўқи бўйлаб ҳавонинг таркибий намлиги миқдори d қўйилади, ордината ўқига эса унинг энтальпияси I . Бундан ташқари диаграммада бир ҳил температуралар t (изотермалар), нисбий намлик φ , зичлик ρ , сув буғларининг парциал босими $P_{с.б.}$ чизиқлари ўтказилган.

Диаграмма конкрет атмосфера босими учун қурилади. Қуриш пайтида нам ҳавонинг термодинамик тенгламаларидан фойдаланилади.

Масалан: Изотермалар $t = \text{const}$ қуриш пайтида энтальпия учун бўлган

$$I = 1,005t + (2500 + 1,8t) d/1000 \text{ тенгламадан фойдаланамиз.}$$

$t = \text{const}$ бўлганда

$$I = a + vd,$$


бу ерда a ва v -ўзгармас сонлар. Бу тўғри чизиқ тенгламаси, демак изотермалар ҳам тўғри чизиқли бўлади. Ҳар бир чизиқни кўриш учун 2-та нуқтани билиш етарли.

$t = 0^\circ\text{C}$ чизиқни кўрамиз.

Биринчи нуқтамиз координата бошида бўлади, яъни

$$t = 0^\circ\text{C} \text{ да } d = 0 \text{ г/кг, } I = 0 \text{ кЖ/кг}$$

$$t = 0^\circ\text{C} \text{ да } d = 4 \text{ г/кг, } I = 1,005 \cdot 0 + (2500 + 1,8 \cdot 0) 4/1000 = 10 \text{ кЖ/кг}$$



4.1-расм. Нам ҳавонинг I - d - диаграммаси


Иккинчи нуқтамиз $d = 4$; $I = 10$. Иккита нуқталарни бирлаштирсак $t = 0^{\circ}\text{C}$ га чизигини топамиз. Шу усулда $t = 1^{\circ}\text{C}$ га тенг ва бошқа изотермалар курилади.

Қолган параметрларнинг изочизикларини (ўзгармас параметр чизиклари) уларнинг термодинамик тенгламаларидан фойдаланиб чизилади. $\varphi = 100\%$ чизиги туйилган ҳаво параметрлари кўрсатади.

$I-d$ -диаграммасида кўрсатилган нуқта ҳавонинг ҳолатини кўрсатади. Агарда 5 та параметрлардан: I , d , t , φ , ρ иккитаси маълум бўлса, у ҳолда $I-d$ диаграммаси ёрдамида қолган ҳамма параметрларни топиш мумкин.

Диаграмма ҳаво ҳолатининг фақат параметрларини аниқлашда эмас, балки унинг ҳолатини исталган кетма-кетликда ва ҳар ҳил жараёнларда: қиздирилганда, совитилганда, намланганда, қуритилганда, аралаштирилганда, ўзгаришини куриш учун жуда қулайдир.

Ҳавонинг асосий параметрларидан ташқари, $I-d$ -диаграмма ёрдамида яна иккита параметрни топиш мумкин. Бу параметрлар вентилиция ва ҳавони кондициялашнинг ҳисобларида кенг ишлатилади: $t_{ш}$ -шудринг нуқтасининг ҳарорати ва t_n - нам термометр ҳарорати (4.2-расм).



4.2-расм. $I-d$ диаграммасида t_n нам термометр ва $t_{ш}$ шудринг нуқтаси ҳароратларини аниқлаш

Шудринг нуқтаси деб ўзгармас таркибий намлик миқдориди, ҳавонинг тўла тўйинган ҳолатини аниқлайдиган нуқтага айтилади. Шудринг нуқтаси **шудринг ҳарорати** билан аникланади - $t_{ш}$.

Нам термометр ҳарорати-бу температурани нам ҳаво адиабатали намланиш жараенини охирида қабул қилади.

Намланган батист материали билан ўралган термометр ёрдамида ўлчанади.

$t_n = \text{const}$ чизикларининг қиялиги $\varepsilon = t_n$. Тақрибан нам термометрларнинг температурасини $I = \text{const}$ ва $\varphi = 100\%$ чизиклардан фойдаланиб топиш мумкин.

Мисол: $t = 30^\circ\text{C}$, $t_n = 20^\circ\text{C}$, қолган параметрлар топилсин ($P = 5,3$ кПа; $I = 59,4$ кЖ/кг; $d = 11,35$ г/кг к.х; $\varphi = 40\%$; $P_n = 1,75$ кПа, $\rho = 1,09$ кг/м³; $t_{ш} = 15,2^\circ\text{C}$).

4.3. *I-d-диаграммасида ҳавони кондициялаш тизимлари аппаратларидаги ҳаво ҳолатини ўзгариш жараёнларининг қурилиши*

Ҳаво кондициялашда унинг иссиқлик намлиги ҳолати ўзгаради. Бу ўзгаришларни ҳисоблаш ва кўрсатиш учун *I-d*-диаграммасидан фойдаланиш жуда қулайдир.


I-d-диаграммасида, ҳавонинг бошланғич ҳолатига мос бўлган 1-чи нуктани ва унинг ўзгарган ҳолатига мос бўлган 2-чи нуктани кўрсатайлик (4.3-расм). Бу иккита нуктани бирлаштирувчи туғри чизиқ, ҳавонинг иссиқлик намлик ҳолатининг ўзгаришни тавсифлайди ва жараён нури деб аталади.

I-d-диаграммасида жараён нурининг ҳолати бурчак коэффиценти билан аниқланади. Агар нам ҳаво ўзининг ҳолатини бошланғич I_1 ва d_1 охириги I_2 ва d_2 қийматигача ўзгартирган бўлса, унда қуйидаги нисбатни ёзиш мумкин

$$\varepsilon = \frac{I_2 - I_1}{d_2 - d_1} 1000, \quad (4.15)$$

ε -коэффиценти кЖ/кг бирликда ўлчанади.

Бу параметр яна иссиқлик намлик нисбати дейилади, чунки у ҳаво 1 кг намлик олинганда (ёки берилганда) иссиқлик миқдори қанчага ўзгарганини кўрсатади. Агар ҳавонинг бошланғич параметрлари хар ҳил бўлиб, қийматлари бир ҳил бўлса, унда ҳаво ҳолатининг ўзгаришини ифодаловчи чизиқлар ўзаро параллел бўлади.



4.3-расм. *I-d-диаграммасида ҳавонинг ҳолатини ўзгаришини кўрсатиш ва йуналишини аниқлаш*

1-ҳавонинг бошланғич ҳолати; 2-ҳавонинг охириги ҳолати; 1-2 - ҳавонинг ҳолати ўзгариш жараёни

(4.15) ифоданинг сурати ва махражини жараёнда иштирок қилаётган ҳавонинг сарфи G га, кг/соат, кўпайтириб, қуйидагини топиш мумкин

$$\varepsilon = \frac{(I_2 - I_1)G}{(d_2 - d_1)G} 1000 = \frac{Q_T}{W_{opT}} \quad (4.16)$$


бу ерда Q_T -ҳавонинг ҳолати ўзгариши жараёнида алмашинилган тўлиқ иссиқлик оқими, кЖ/соат; W_{opT} -ҳавонинг ҳолати ўзгариши жараёнида алмашинилган намлик сарфи, кг/соат.

Жараён чизиклари $I-d$ -диаграммага бир нечта усул орқали чизиб тушурилади: ҳисоблар асосида бевосита чизиб тушуриш; $I-d$ -диаграммасидаги бурчакли масштабдан фойдаланиб тушириш; бурчакли масштаб транспортдан фойдаланиб тушириш.

Иситиш ва совутиш жараёнлари

Иситиш энг оддий жараён бўлиб, унда қуруқ иссиқ сиртдан ҳавога конвектив иссиқлик алмашиниш орқали ошқора иссиқлик берилади. Бу жараёнда ҳавонинг таркибий намлиги ўзгармайди, шунинг учун $I-d$ -диаграммасида иситиш жараёни $d=\text{const}$ чизиғи бўйича пастдан юқорига йўналган бўлади.

Агар ҳавони 1 нуктадаги (t_1 , φ_1 , 4.4-расм) параметрлари билан калориферда қиздирсак, унда бу жараён 1 нуктадан $d_1=\text{const}$ чизиғи бўйича тик юқорига йўналган тўғри чизик билан ифодаланади.



4.4-расм. Иситиш ва совутиш жараёнлари курсатилган $I-d$ -диаграммаси

Ҳавога қанчалик кўп иссиқлик берилса, у шунчалик кўп қизийди ва $d_1=\text{const}$ чизиғи бўйича иситилган ҳавонинг ҳолатига мос бўлган нуқтаси

юқорирок жойлашади. 4.4-расмда у 2-чи нуктага мосдир, бунда хар 1кг ҳавонинг қуруқ қисмига ΔI_1 кЖ иссиқлик берилган бўлади.


Совуқ қуруқ сирт билан конвектив иссиқлик алмашилиш натижасида ҳаво совиш жараёнида фақат ошқора иссиқликни беради. $I-d$ -диаграммасида бу жараён $d=\text{const}$ чизиғи бўйича юқоридан пастга бўлган йўналишга мосдир; масалан, 1-чи ҳолатдан 3-чи ҳолатгача ҳаво совиганда (4.4-расм. қаранг) 1кг. ҳавонинг қуруқ қисмидан ΔI_2 кЖ иссиқлик олинган бўлади.

Фақат ошқора иссиқликни бериш билан оқиб ўтадиган ҳавонинг совитиш жараёни, 4-чи нуктагача (4.4-расм. қаранг), яъни $d_1 = \text{const}$ нурнинг $\varphi = 100\%$ чизиғи билан кесишгунча содир бўлиши мумкин. Бу нукта ҳавонинг шудринг нуктасига мосдир. Совитиш давом этилса, ҳаводаги сувнинг буғлари конденсацияланади ва ҳавонинг иссиқлик намлик ҳолатининг ўзгариши $\varphi = 100\%$ чизиғи бўйича пастга чап томонга йўналган бўлади, масалан 5-чи нуктагача $\varphi = 100\%$ чизиғи бўйича совитиш фақатгина ошқора иссиқликни бериш билан боғлиқдир, шунинг учун бу жараён мураккаброқ бўлган иссиқлик ва намлик алмашилиш жараёнига киради.

Адиабатик (изоэнтальпияли) намланиш жараёни

Сувнинг юпқа қатлами ёки томчиси ҳаво билан контактда бўлганда нам термометр ҳароратни қабул қилади. Бундай ҳароратга эга бўлган сув билан ҳаво контакта бўлганда, ҳавони адиабатик (изоэнтальпияли) намланиш жараёни содир бўлади. $I-d$ -диаграммада бундай жараён $I=\text{const}$ чизиғи бўйича йўналган бўлади (чапдан пастга унғ томонга). Агар 1 ҳолатидаги ҳаво (4.6-расм) нам термометр ҳарорати $t_{н1}$ га тенг бўлган сув билан контактда бўлса, унда унинг ҳолати $I_1=\text{const}$ чизиғи бўйича ўзгаради, масалан, 2-чи нуктагача, бунда 1кг ҳавонинг қуруқ қисмида Δd_1 г. намлик ассимиляцияланади (аралашиб кетади). Мазкур жараёнда ҳавонинг охириги намлик билан тўйинган ҳолати 3-чи нуктада жараён нурунини ва $\varphi = 100\%$ эгри чизиғининг кесишган жойидир.

Кондициялашда кўпинча ҳавони рециркуляцияли сув билан адиабатик намлашдан фойдаланилади. Бунинг учун пуркаш камерасида сув яна насос ёрдамида олинади. Сув ҳаво билан узлуксиз контактда бўлгач, нам термометр ҳароратига яқин ҳароратга эга бўлади ва кичик миқдорда (1-3% гача) буғланиб, камерадан ўтаётган ҳавони намлайди. Ҳақиқий жараён $I=\text{const}$ чизиғидан, нам ҳаводаги сув буғи улушининг иссиқлик сифими ортиши натижасида бироз юқорига силжийди, лекин бу силжиш амалда йўқ даражада камдир.



4.5.-расм. Ҳавони изоэнтальпияли ва изотермик намланиш режими кўрсатилган $I-d$ -диаграммаси

Нам термометр шарчасининг сиртида содир бўлаётган адиабатик жараёни кўриб чиқайлик (4.3, б-расмга қаранг)

$$I_2 = I_1 + (W\delta/G)t_2c_w \text{ ёки } I_2 - I_1 = (W\delta/G)t_2c_w; \quad (4.17)$$

$$d_2/1000 = d_1/1000 + W\delta/G \text{ ёки } (d_2 - d_1)/1000 = W\delta/G; \quad (4.18)$$

(4.17) ифодани (4.18) формулага бўлганда, оламиз:

$$\varepsilon = [(I_2 - I_1)/(d_2 - d_1)]1000 = t_2c_w = t_{ncw} \quad (4.19)$$


Шундай қилиб, нам термометр шарчасининг сиртидаги жараён бурчак коэффициентининг $\varepsilon = t_{ncw}$ га тенг булган қийматида содир бўлади. Бу ердан, айтиш мумкинки, адиабатали (изоэнтальпияли) жараён фақат $t_n = 0^\circ\text{C}$ қийматида бўлиши мумкин. Қолган бошқа ҳолларда изоэнтальпияликдан четга чиқиш кузатилади.

Изотермик намланиш жараёни

Агар ҳавога, у қуруқ термометр бўйича эга бўлган ҳароратига тенг ҳароратли буғ берилса, унда ҳаво ўзининг ҳароратини ўзгартирмасдан туриб, намланади. Ҳавони буғ билан изотермик намланиш жараёнини $I-d$ -диаграммасида $t_k = \text{const}$ чизиқлар бўйича кузатиш мумкин. Параметрлари 1-чи нуқта билан аниқланган ҳавога буғ берилса (4.5-расмга қаранг), ҳавонинг ҳолати $t_1 = \text{const}$ чизиғи бўйича ўзгаради (чапдан ўнгга). Намланишдан сўнг бу изотерма бўйича ҳавонинг ҳолати ихтиёрий нуқтага мос бўлиши мумкин, масалан, Δd_2 намлик ассимиляциясида 4-чи нуқта. Мазкур жараёнда ҳавонинг охириги ҳолати t_1 чизиғининг ва $\phi = 100\%$ чизиғининг кесишиш нуқтаси 5 дир.

Иссиқлик ва намлик алмашишдаги политропик жараёнлар

Кондициялашда ҳаво ҳолатининг ўзгаришлари кўп жараёнларда ҳавога бир вақтнинг ўзида иссиқлик ва намликнинг берилиши ёки олиниши билан боғлиқдир. Ҳаво ҳолатининг бундай ўзгаришлари, масалан, хоналарда содир бўлади, бу ерда бир вақтнинг ўзида ошқора иссиқлик ва сувнинг буғлари ажралиб чиқади ёки бир вақтнинг ўзида ҳаво совитилади ва қуритилади. Ҳавода ассимиляцияланган иссиқлик ва намлик миқдорларнинг ихтиёрий нисбатида, ҳаво ҳолатининг ўзгаришини $I-d$ -диаграммада ҳар хил йўналишга эга бўлган чизиқлар билан кўрсатиш мумкин (4.6-расм).



4.6-расм. Нам ҳаво ҳолатининг характерли ўзгаришлари

1-2-қуруқ исиш; 1-3-намланиб исиш; 1-4-адиабатали намланиш; 1-5-қуруқ совуш; 1-6-қурутилиб совуш

Агар ҳаво қуруқ қисмининг сарфи G кг/соат бўлган ҳаво оқимида, Q кЖ/соат иссиқлик ва W кг/соат намлик берилса, унда унинг энтальпияси ΔI кЖ/кг га:

$$Q = G \Delta I, \quad (4.20)$$

таркибий намлиги эса- $\Delta d'$ кг/кг га ўзгаради:

$$W = G \Delta d' \quad (4.21)$$

(4.21) ва (4.22) тенгламаларнинг ўнг ва чап томонларининг нисбати, $I-d$ -диаграммасида ҳаво ҳолати ўзгариши жараён нури йўналишининг кўрсаткичи бўлиб, бурчак коэффициенти

$$\varepsilon = Q/W = \Delta I / \Delta d' \quad (4.22)$$

га тенгдир.

Хоналарда ёки камераларда ишлов берилганда ҳаво ҳолатининг ўзгариши унинг энтальпияси ва таркибий намлиги ўзгаришига олиб келади. Ҳавонинг бошланғич ҳолатини ва сарфи G ни, тўлиқ иссиқлик кириши Q ни ва ҳавога намлик берилиши W ни билиб туриб, ε кўрсаткичи ва $I-d$ -диаграммасидан фойдаланиб, ҳавонинг охири параметрларини аниқлаш мумкин. Бошқа

ҳолларда, қолган катталиклар берилган бўлиб, номаълумлар қаторида: ҳавонинг сарфи G , иссиқлик Q ва намли W бўлиши мумкин.

Ихтиёрий ε кўрсаткичи политропик жараён, ўз ичига ҳаво ҳолатининг ҳамма мумкин бўлган ўзгаришларини олади (4.7-расмга қаранг).

Мисол: 1-ҳавонинг бошланғич ҳолати; 1-2 узгармас намлик миқдорида ҳавонинг иситиш жараёни $I_2 > I_1 > 0$; $d_2 - d_1 = 0$ бу жараён иситгичларда оқиб ўтади (калориферларда)

$$\varepsilon_{1-2} = \frac{I_2 - I_1}{d_2 - d_1} = \frac{I_2 - I_1}{0} = +\infty;$$

1-3-ҳавони иситиш ва намлаш жараёни

$$\varepsilon_{1-2} = \frac{I_2 - I_1}{d_2 - d_1} > 0;$$

1-4-ҳавони адиабатали намлаш жараёни (адиабатали деб нам ҳавонинг ўзгармас энталпияси билан оқиб ўтадиган жараёнига айтилади, яъни ҳавога иссиқлик беришсиз ёки олишсиз амалга оширилган жараёнга)

$$\varepsilon_{1-4} = \frac{I_4 - I_1}{d_4 - d_1} = \frac{0}{d_4 - d_1} = 0;$$

1-5-ўзгармас намлик миқдорида ҳавони совитиш жараёни (қуруқ совитиш)

$$\varepsilon_{1-5} = \frac{I_5 - I_1}{d_5 - d_1} = -\infty;$$

1-6-ҳавони совитиш ва қуриштириш жараёни

$$\varepsilon_{1-6} = \frac{I_6 - I_1}{d_6 - d_1} < 0.$$

I - d -диаграммасида чизикларни қуриш учун бурчак масштаби қурилади. Бир хил бурчак коэффициентига эга бўлган жараёнлар параллел чизиклар билан қурилади.


Аралаштириш жараёнлари

Кондициялашда баъзи бир ҳолларда, хонага бериладиган ташқи ҳавони ички ҳаво билан аралаштиришади (ички ҳавонинг рециркуляцияси, яъни қайта айланиш). Ҳар хил ҳолатлардаги ҳаво массаларини аралаштиришнинг бошқа ҳоллари ҳам бўлиши мумкин. I - d -диаграммасида ҳавонинг аралаштириш жараёни, аралаштирилган ҳаво массаларининг ҳолатини аниқловчи нуқталарини бирлаштирувчи тўғри чизик билан кўрсатилади. Агар 1 ҳолатида бўлган (4.7-расм) G миқдордаги ҳавони, 2 ҳолатида бўлган nG миқдордаги ҳаво билан аралаштирилса, унда 3 аралашма нуқтаси 1-2 кесмани ёки Δt_{1-2} ва Δd_{1-2} бўлган унинг проекцияларини 1-2, 3-2 қисмларга ёки Δt_{1-3} , Δt_{3-2} ва Δd_{1-3} , Δd_{3-2} га бўлади:

$$\frac{1-2}{3-2} = \frac{\Delta t_{1-3}}{\Delta t_{3-2}} = \frac{\Delta d_{1-3}}{\Delta d_{3-2}} = \frac{G}{nG} = \frac{1}{n}. \quad (4.23)$$

Шундай қилиб, аралашма нуқтасини топиш учун, 1-2 тўғри чизикни ёки унинг проекцияларини $n+1$ қисмига бўлиб, 1-чи нуқтадан бир қисм, қолган n

қисмларни 2-чи нуқтагача ўлчаб қўйиш лозим. Бундай чизиш аралашма нуқтасининг жойлашишини аниқлайди. Аралашма 3' нуқтаси $\varphi=100\%$ чизиғидан пастроқ бўлиши ҳам мумкин. Аралашмиш натижасида туман ҳосил бўлганини (ҳаводаги сув буғларидан томчилар ҳосил бўлишини, конденсацияланишини) кўрсатади.




4.7-Ҳар хил ҳолатидаги икки масса ҳавонинг аралашмиш режими тасвирланган I-d-диаграммаси

Агар ёгиладиган намликнинг ҳароратини нам термометр ҳароратига яқин деб олсак, яъни аралашма 3' нуқтасига (4.8-расм) мос деб ($I_3=\text{const}$), унда аралашма 3 нуқтасининг ҳақиқий параметрлари $I_3=\text{const}$ ва $\varphi=100\%$ чизиқларининг кесишида бўлади. Ҳавонинг таркибий намлигини намлик конденсацияланиши ҳисобига камайиши

$$\Delta d = d_3 - d_3 \quad (4.24)$$

га тенг бўлади.



4.8-расм. Аралашма нуқтаси $\varphi = 100\%$ чизигидан пастроқ бўлган ҳолдаги ҳавонинг аралашмиш режими тасвирланган I-d-диаграмма

Мисол: $G_1 = 1000$ кг; $G_2 = 3000$ кг; $d_1 = 10$ г/кг; $d_2 = 5$ г/кг. 1 ва 2 нуқталар орасидаги масофа 140 мм га тенг. Аралашма нуқтаси 3 топилсин.

Ечим: Аралашма нуқтаси 3 1-2 тўғри чизик устида ётади (3.7-расм), бўлакчалар нисбати куйидагига тенг бўлади $1-3/2-3 = 3000/1000 = 3$.

Нуқталар орасидаги узунликни 4та қисмга бўламиз. Учинчи нуқта 2-чи нуқтадан $140:4 = 35$ мм масофада бўлади, яъни бир қисм узунлигида.

5 илова

Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар

1. Нам ҳавонинг қандай хусусиятлари бор?
2. Нам ҳаво I-d диаграммасида иситиш ва совутиш жараёнлари қандай тузилади?
3. Адиабатик, изотермик намланиш жараёнлари қандай олинади?
4. Иссиқлик ва масса алмашинуви жараёнлари нима учун тузилади?

6 илова

Мавзу бўйича билимларни чуқурлаштириш учун адабиётлар рўйхати

1. Рашидов Ю.К., Исманходжаева М.Р. “Ҳавони кондициялаш”. Ўқув қўлланма. Т., 2000 й
2. Каталог фирми «Веза». М., 2008 г.

3. Ананьев В.А., Балуева Л.Н. и др. «Система вентиляции и кондиционирования воздуха». М. Евроклимат, 2000, 416 стр.

6-илова

Кейинги мавзу бўйича тайёрланиб келиш учун саволлар

1. Марказий кондиционернинг қандай база схемалари ва бўлимлари мавжуд?
2. Конструктив элементлари, тавсифлари, ҳисоблаш назариясини тушунтиринг.

9 - МАВЗУ	Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий бўлимлари: пуркаш бўлими, иситиш бўлими ва ҳавони совутиш бўлимлари. Конструктив элементлари, тавсифлари.
------------------	--

1.1. Маърузани олиб бориш технологияси

<i>Ўқув соати – 2 соат</i>	Талабалар сони: 50 та
<i>Ўқув машғулот шакли</i>	Ахборотли маъруза
<i>Маъруза режаси</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий бўлимлари: 2. Пуркаш бўлими, иситиш бўлими ва ҳавони совутиш бўлимлари. 3. Конструктив элементлари, тавсифлари.
<i>Ўқув машғулотининг мақсади</i> Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий бўлимлари: пуркаш бўлими, иситиш бўлими ва ҳавони совутиш бўлимлари. Конструктив элементлари, тавсифлари мавзуси бўйича талабаларда билим кўникма ва малакаларини ошириш	
<i>Педагогик вазифалар:</i>	<i>ўқув фаолияти натижалари:</i>
Маърузада Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий бўлимларининг аҳамияти ва моҳиятини тушунтириш.	Маърузада Марказий иситиш тизимларини монтаж қилиш жараёнини тушунтириб бера оладилар.
Иситиш тизимлари монтаж қилишда зарур материаллар ва қурилмалар бўйича умумий тушунча бериш	Иситиш тизимлари монтаж қилишда зарур материаллар ва қурилмалар ҳақида умумий тушунчасини айтиб бера оладилар.

Буғли иситиш тизимларини монтаж қилишнинг ўзига хосликлари ҳақида тушунча бериш	Буғли иситиш тизимларини монтаж қилишнинг ўзига хосликларини тушунтириб бера оладилар.
Тизимни синаш, ишни қабул қилиш ва топшириш, иситиш тизимларини монтаж қилишда меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича умумий тушунчалар беради	Тизимни синаш, ишни қабул қилиш ва топшириш, иситиш тизимларини монтаж қилишда меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича умумий тушунчалар ва тавсифларини тушунтириб бера оладилар
Ўқитиш воситалари	маъруза матни, компьютер слайдлари, доска
Ўқитиш усуллари	Ахборотли маъруза, блиц-сўров, кластер техникаси
Ўқитиш шакллари	Жамоада ишлаш
Ўқитиш шароити	Техник воситалар билан таъминланган, гуруҳларда ишлаш усулини қўллаш мумкин бўлган аудитория.
Мониторинг ва баҳолаш	оғзаки саволлар, тест саволлари,


Марказий иситиш тизимларини монтаж қилиш. Тизимни синаш, ишни қабул қилиш ва топшириш, иситиш тизимларини монтаж қилишда меҳнатни муҳофаза қилиш мавзусининг технологик харитаси

Иш босқич-лари	Ўқитувчи фаолиятининг мазмуни	Тингловчи фаолиятининг мазмуни
1- босқич. Мавзуга кириш (10мин)	1.1. Ўқув машғулоти мавзуси, режаси ва ўқув фаолияти натижаларини айтади. 1.2. Кластер усулида мавзуга бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради. (1-илова). 1.3. Мавзунини жонлаштириш учун саволлар беради. (2-илова).	Тинглайдилар Тинглайдилар
2 - босқич. Асосий бўлим (50 мин)	2.1.Маъруза ўқийди. (4 - илова). 2.2.Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар беради(5 илова)	Тинглайдилар ва ёзадилар Тинглайдилар ва жавоб берадилар

<p>3-босқич.</p> <p>Яқунловчи (10 мин)</p>	<p>3.1. Машғулот бўйича яқунловчи хулосалар қилади. Мавзу бўйича олинган билимларни қаерда ишлатиш мумкинлиги маълум қилади.</p> <p>3.2. Мавзу бўйича билимларни чуқурлаштириш учун адабиётлар рўйхатини беради.(6-илова)</p> <p>3.3. Кейинги мавзу бўйича тайёрланиб келиш учун саволлар беради.(6-илова)</p>	<p>Саволлар берадилар.</p> <p>Тинглайдилар ва ёзадилар</p> <p>ёзадилар</p>
--	--	--

1-илова

Кластер усулида мавзу бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради



2-илова

Мавзунини жонлаштириш учун блиц сўров саволлари

1. Марказий кондиционернинг нечта база схемаси бор?
2. База схемалари нима билан фарқланади?
3. Пуркаш бўлими ОКФ-3 қандай вазифани бажаради?
4. Сеткали пуркаш бўлими ОКС-3 қандай вазифани бор?
5. Пуркаш бўлимининг конструктив элементлари нималардан ташкил топган?
6. Иситиш бўлимининг вазифаси нима?

4 - илова

КЦКП туридаги кондиционерлар

Каркас – панелли КЦКП турдаги (оқимли камералар) марказий кондиционерлар
Ту – 4862 – 011 – 40149 РОСС RU.АЯ04.ВО7508 каркас – панелли (оқимли камералар)ларнинг гигиеник сертификати



Кондиционерлар саноат корхоналари, жамоат ва маъмурий биноларни ҳавосини кондициялаш, вентиляцияси ва ҳаво билан иситиш тизимларида ишлатиш учун белгиланган.

КЦКП туридаги кондиционерларда ташқи ҳавога барча турдаги жараёнларни филтрлар, иситиш, совутиш, қуриштириш, намлаш, иссиқ ва совуқни рекуперация ва регенерация қилиш, шовқиндан ҳимоялаш, дезинфекциялаш (ҳавони зарарсизлантириш) ва хизмат қилувчи хоналарда берилган параметрли сунъий иқлимни таъминлайди.

Кондиционерлар автоматика ва созлаш жиҳозлари билан истеъмолчига етказиб берилади. Ҳавога ишлов беришнинг қабул қилинган технологик жараёни унга мос автоматика билан уйғунлашиб, параметрларни аниқ созланишини таъминлайди, кондиционерларни ишлатиш диапазонини кенгайтиради ва ҳар бир конкрет вариантларда оптимал энергетик ва иқтисодий маблағларни оптимал таъминлаш имконияти яратилади.

Кондиционерни танлаш учун махсус компьютер программаси “КЦКП” ишлаб чиқилган функционал блокларни ички ҳажмини герметикли иссиқлик ва шовқиндан изоляцияси кондиционерни айнан саноат корхонасида ўрнатишга имконият яратади.


Кондиционерларни ишлаб чиқариладиган номенклатураси қуйида схемада кўрсатилган.

Ўлчам катерлар

Номинал ҳаво унумдорлиги 200 дан – то 100000 м³


Кондиционернинг қаторлар ўлчами дунё амалиётига мос келадиган этиб танланган бўлиб, унинг асоси этиб турли модулдаги 610 – 610 мм ҳаво филтрларининг уйғунлашувида унинг ярми (305 x 610) ва чорагига (305 x 305) уларнинг базасида (асосида) кондиционер блокларининг фронтал ўлчамлари белгиланади.


Умумий КЦКП туридаги ва метрополитенлар учун ишлаб чиқариладиган кондиционерлар.



Общепромышленные кондиционеры КЦКП, в том числе КЦКП-А для АЭС, КЦКП-П для метрополитена

Кондиционернинг индекси	КЦКП-1.6	КЦКП-3.15	КЦКП-5	КЦКП-6.3	КЦКП-8	КЦКП-10	КЦКП-12.5	КЦКП-16	КЦКП-20	КЦКП-25	КЦКП-31.5	КЦКП-40	КЦКП-50	КЦКП-63	КЦКП-80	КЦКП-100
Ҳаво унумдорлиги м ³ /с	1600	3150	5000	6300	8000	10000	12500	16000	20000	25000	31500	40000	50000	63000	80000	100000






Ташқарида ва гигиеник ишлаб чиқариладиган кондиционерлар ҳаво унумдорлигининг чегараси доираси.

Наружное исполнение кондиционеров КЦКП-Н

Гигиеническое исполнение кондиционеров КЦКП-Г

Типоразмерный ряд	№ 1.6	№ 3.15	№ 5	№ 6.3	№ 8	№ 10	№ 12.5	№ 16	№ 20	№ 25	№ 31.5	№ 45	№ 50	№ 63	№ 80	№ 100
Номинальная воздухопроизводительность, м ³ /ч	1600	3150	5000	6300	8000	10000	12500	16000	20000	25000	31500	45000	50000	63000	80000	100000




Медицинские кондиционеры КМКП

Кондиционерный индекс	КМКП-1.6	КМКП-3.15	КМКП-5	КМКП-6.3	КМКП-8	КМКП-10	КМКП-12.5
Хаво унумдорлиги м³/с	1800	3150	5000	6300	8000	10000	12500


Бошлангыч модульлар						
КМКП-1.6	КМКП-3.15	КМКП-5	КМКП-6.3	КМКП-8	КМКП-10	КМКП-12.5

Диапазоны воздухопроизводительности


Рабочие диапазоны расходов воздуха для различных типоразмеров кондиционеров определяются допустимыми значениями скорости в проходных сечениях блоков, имеющимися площадями для их размещения, уровнем шума и другими частными факторами.



Кондиционеры компактные подвесные "Airmate"





Медицинские кондиционеры КМКП



Компановкаси (йиғилиши).

Кондиционерлар КЦКП – 40 гача барча турдаги ўлчамлар учун вертикал бўйича икки босқичли схема (икки қават), горизонтал бўйича (икки қатор) КЦКП ҳаво каналидаги ҳаво оқимининг йўналиши бўйича ўнг ёки чап конструктив вариантда компоновка (йиғилиш) қилинади.





Структураси

Кондиционерлар ва моноблокли унификацияланган бирлаштирувчи ўлчамга эга бўлган ва функционал блоклардан йиғиладиган белгиланган ҳавога ишлов бериш жараёнига имконият яратадиган модулли структурага эга.



Етказиб берилиши

Кондиционерлар КЦКП – 45 гача истеъмолчига йиғилган ҳолда етказиб берилади.


Монтаж жараёнидаги маблағларни тежаш мақсадида ҳамда транспортда ташиишга қулай бўлиши учун ҳамда КЦКП кондиционерларни битта рамада моноблок кўринишида максимал заводда йиғилади. Етарли кенгликдаги эшик ўлчамлари, кўтариш механизмлари бўлмаган ҳолда КЦКП – 50, 100 кондиционерларни алоҳида қисмларга бўлак – бўлак пакетлар кўринишида етказилади. Қандай ҳаракатда етказиш усулини (монблоклар, блоклар, пакетлар) сўров варағида кўрсатилади.

Кондиционерлар стандарт юқори зичликли полиэтиленга ўралади, қўшимча ҳақ тўланганда – пофрокартон билан ўралади ва ёғочдан панжара қилинади.



КЦКП кондиционерларни асосий афзалликлари:

- буюртмачининг шахсий талабига кўра ишлаб чиқарилиши;
- махсус ишлаб чиқилган компьютер дастури ва каталоглар ёрдамида тезкор (оператив) йиғиш мумкинлиги;
- ишлаб чиқариладиган заводнинг шахсий автоматика билан комплектланиши;
- ISO – 9001 меъёрига жавоб берадиган махсулотни юқори сифати кафолатланади;
- замонавий технологик линияда ишлаб чиқарилади;
- кондиционерни конструкцияси блокли ёки моноблокли бўлиши мумкин;
- лойиҳа институтлари ва буюртмачини лойиҳанинг барча этапларида бепул маслаҳат бериш ва информация билан таъминланиши;
- ишлатиш жойида оператив сервис ва техник хизмат кўрсатиш;
- монтажни ташкил этиш, кафолат даврида ва ундан кейинги даврда сервис хизмат кўрсатиш;
- кондиционерни қобиғини кафолати 5 йил;
- ишлаб чиқариш ва буюртмачига жўнатиш 4 – 5 ҳафтадан ортмайди.
- Регионларда ваколатхоналар кенг тармоқли.




Автоматика собственной сборки



Дверные петли из алюминия



Освещение в блоках стандартно от КЦКП-20



Вентиляторы двустороннего всасывания с высоким КПД в стандартном исполнении



Смотровые окна стандартно от КЦКП-20

Гигиеник – ишлаб чиқарилиши “КЦКП - Г”
Кондиционерлар 3 та модификация схемада ишлаб чиқарилади.





Кондиционер функционал кўринишида моноблоки ва блоки бўлиши мумкин.

КЦКП – Г1 кондиционерларнинг ички блоклари кукун билан қопланган рухланган пўлатдан ясалади.

КЦКП – Г2 кондиционерларнинг ички блоклари ва деталлари зангламайдиган пўлатдан ясалади.

Каркасни конструкциясида махсус алюминиевий профиль ишлатилади.

Кондиционерни ташқи қобиғи мошранг кукун билан қопланган рухланган пўлатдан ясалади. Панелларнинг қалинлиги – 46 мм.

Кондиционернинг барча бирикмалари махсус герметиклар билан дезинфекцияловчи моддалар таъсирида чидамкор гигиеник зичловчилар билан герметикланган.

Барча асосий тугунлари, вентилятор электр двигатели билан тозалаш ва алмаштириш учун енгил олинади ёки сурилади.

Қобиғ конструкциясининг ўзига хослиги, ички қисмининг юзалари силлиқ ва тенг бўлганлиги кондиционерни тозалаш ва дезинфекциялаш жараёнини енгиллаштиради.

Кондиционерни филтёр “вентилятор ва намлаш” бўлимларида кўриш ойналари билан жиҳозланган.

Ҳавони совутиш ва намлаш бўлимларида тагликни кўзда тутилган.

Кондиционернинг бошқа бўлимлари: ҳавони совутиш бўлими албатта томчи узлатгич билан жиҳозланган.

Медицинада ишлатиш учун КЦКП – М туридаги кондиционерлар ишлаб чиқарилади.

Функционал блоklar ёки моноблокларни йиғиб, кондиционер кўринишда ишлаб чиқарилади.

Кондиционернинг каркаси “амего” профилдан ясалади. Панелларнинг қалинлиги – 42 мм. Иссиқликдан ҳимоя қилиш пенополиуретан материал ишлатилади.

Барча ички деталлари ва тугунлари, панелларнинг ички деворлари билан зангламайдиған пўлатдан ясалади.

Барча блоклари ва секциялари кўриш ойналари билан жиҳозланган.

Блокларнинг таги жўмракли таглик кўринишида ясалган. Ҳавони совутиш вазифасини бажарувчи ҳавосовутгичлар, конденсатни йиғиш учун кўшимча таглик билан жиҳозланган.

Кондиционернинг ташқи сирти панеллари мош рангли эпоксид кукуни билан қопланган рухланган пўлатдан ясалади.



Используется только вентиляторы с прямым приводом (ВСК)



Смотровые люки и освещение стандартно



Моноблок (қабул қилиш ва аралаштириш бўлими)



иситиш

совутиш бўлими (компрессор - буғлатгичли, электр ёрдамида ҳавони иситиш)

Моноблок – ҳаво бўлими ВНВ, ҳаво

Ташқарида ўрнатиладиган “КЦКП – Н” кондиционери

Кондиционерни каркаси алюминли профилдан ясалади.

Панелларнинг ички сирти рухланган пўлатдан, ташқи сирти атмосферага чидамли полимер қопламали, кукунсифат бўёқ билан қопланади.

Бурчаклар очилмайдиган панеллар ва ригеллар орасидаги тирқишлар (атроф муҳит таъсирига чидамли махсус герметиклар) ва бирикмалар билан герметикланади.

Атмосфера ёғинларидан ҳимоялаш учун кондиционерни текис қопқоғи бор.

Атмосфера ёғинларидан ҳимоялаш мақсадида кондиционерга киришда ҳимояловчи панжара ёки турли ҳимояловчи соябон ўрнатилади.

Ҳаво қабул қилиш клапани узатма билан блокни ичида жойлашган.

Вентилятор блокни пастга қаратиб ўрнатиш мумкин.



изготовлены из морозоустойчивого материала.

Северное исполнение кондиционеров подразделяется на 3 модификации:

■ **КЦКП-С «01» для обработки воздуха с минимальной температурой -40 °С**

На входе в кондиционер устанавливается воздухозаборный клапан Гермик-С. Далее следуют блоки КЦКП стандартного исполнения.

■ **КЦКП-С «02» для обработки воздуха с минимальной температурой -50 °С**

На входе в кондиционер устанавливается блок подготовки воздуха, обеспечивающий подогрев воздуха с минус 50 °С до минус 40 °С. Блок состоит из воздухозаборного клапана Гермик-С и



работоспособного при температуре минус 50 °С. Каркас изготавливается из алюминия, панели блока из оцинкованной стали. Далее следуют блоки КЦКП стандартного исполнения. Внутренний входной клапан условно снят.

■ **КЦКП-С «03» для обработки воздуха с минимальной температурой -70 °С**

На входе в кондиционер устанавливается блок подготовки воздуха, обеспечивающий подогрев воздуха с минус 70 °С до минус 40 °С. Блок состоит из двух воздухозаборных клапанов Гермик-С, установленных на входе и выходе из блока и теплообменника жидкостного или электрического, работоспособного при температуре минус 70 °С. Каркас изготавливается из алюминия, внутренние панели блока из нержавеющей стали. Далее следуют блоки КЦКП стандартного исполнения.



КЦКП блокларини таснифи

Блокларнинг қобиғи.

Панеллар – тоғ жинсли микроультрасуперигичка базальт тола ёки полиуретан кўпик билан тўлдирилади.

- Юқори шовқиндан Ҳимоя хусусиятларга эга.
- Иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти кичик.
- Стандарт икки хил ишлатиладиган тўқ ҳаво ранг ва рухланган пўлат рангли.

Функционал блокларнинг қобиғи – секциялари каркас конструкцияли ригеллар ва махсус профилли тиргақлар, боғланган бурчак элемент ларидан ясалган.

Ташқи тўсик сифатида олинадиган ва олинмайдиган ёки хизмат қилувчи тарафга очиладиган иссиқликдан ҳимоя панеллар хизмат қилади.


Стандарт шароитда панеллар иккита пўлат листдан ясалган бўлиб, ташқариси тўқ ҳаво рангга бўялган RAL 5017 бўлади.

Панеллар орасидаги бўшлиқ 1000 °С гача сув юқтирмайдиган (ҳажмдан 1,5 % гача) юқори шовқиндан ҳимояловчи хусусиятли (шовқинни 30 дБА гача пасайтирувчи ва кичик иссиқлик ўтказувчанлик (0,2 ÷ 0,03 Вт/м град) эга бўлган қийин ёнувчи минерал (базальт) пахта тўлдирилади.


Мустақкамликка юқори талаб қўйилганда панеллар корпуси полиуретан кўпик билан тўлдирилади.

Кондиционер блоклари ўзаро болтлар ёрдамида, панелларни ўрнатилиши ва блокларни бирлаштирилиши зичлантирувчи қистирмаларни ўрнатилиши, ички блокларни герметиклигини ва уларни юқори даражада мустақкамлигини таъминлайди.


КЦКП 50 ÷ 100 кондиционерлари алоҳида блоклар шаклида ишлаб чиқарилади.



Корпус блока в сборе



Углы алюминиевые и пластиковые



Наполнитель панелей минеральная вата



Панели с покрытием с защитной пленкой

Таянч рамалар ва оёқчалари

Таянч рамалар ва оёқчалари кондиционер блокларини уларга ўрнатиш учун мўлжалланган.



Рамаларнинг кенглиги блокларнинг кенлигига қараб аниқланади, узунлиги қараб аниқланади.

КЦҚП – 1,6...8 функционал блокли ва моноблокли кондиционерларни ўрнатиш учун стандарт оёқчалар қабул қилинади. Битта рамада ўрнатиладиган моноблокли МБ – 05, 06, 08 – кондиционерлардан ташқари.

Функционал ва моноблоклардан йиғиладиган КЦҚП 10 ÷ 100 кондиционерларини ўрнатиш учун стандарт рамалар ишлатилади.

Ускунани машинадан қулай тушириш учун рамалар ва оёқчалар осма тешикчаларга эга.

Блок камерали пуркаш бўлимли кондиционерга буюртма берилганда пуркаш бўлимидаги сиғимнинг бадавдигини инобатга олиш керак.





Ҳаво қабул қилувчи клапанлари

Кондиционерга кираётган ёки аралаштирилаётган ҳавони қабул қилиш учун хизмат қилади. Кондиционернинг олдинги панелларида, қабул қилувчи ва қабул қилувчи - аралаштирувчи блокларида ишлатилади.

Алюминий профилдан ясалган рамаларга айланувчи алюминий профилдан ясалган кураклар ўрнатилади. Профилни ичида юқори мустаҳкамли иссиқликка чидамли пластикдан ясалган шестерняли узатма жойлашган.

Куракларни учма – уч тугашган жойини зичлигини эластик, музга чидамли резинали профиллар билан қистирилиши, клапанларни музга чидамлигини таъминлайди.

Катта унумдорли кондиционерларнинг куракларидаги клапанлар импостларга ажралади, узатмалар эса икки тарафдан ўрнатилади.

Клапанлар режимни пропорционал ёки икки позицияли қўлда ёки электрли узатмалар билан жиҳозланади.

Авария ҳолатида электроэнергияни ўчирилишида клапанлардаги куракларни ёпилишини кафолатловчи стандарт қайтарувчи пружинали электр узатмалар таклиф қилинади. Узатманинг ўқи (12x12 мм) хоҳлаган хизмат қилувчи тарафда ўрнатиш мумкин.

Клапан блокнинг ичкарасида ёки ташқарисида юмшоқ қистирма орқали узатувчи ҳаво каналларига мустаҳкамланади.



Вентилятор блоки

Икки ёқлама сўриб оладиган, кураклари орқага ёки олдинга букилган, ғилдираклари динамик мувозанатли марказдан қочма вентиляторлар ишлатилади. Махсус буюртма бўйича, ғилдираклари спираль қобиғсиз вентиляторлар ясалади. Икки ёқлама сўриб оладиган вентиляторларнинг ишчи ғилдираклари техник хизмат талаб этилмайдиган тебранувчи подшипникларга ўрнатилади. Электродвигатель билан вентилятор умумий рамада резинали тебранишга қарши таянчларга ўрнатилади ва блокнинг қобиғи билан юмшоқ қистирма орқали бириктирилиши вентилятордан тебранишни вибрацияни узатилишини мустасно этади. Енгил хизмат қиладиган, тупчаглари бўлақларга бўлинадиган шкивлари ишлатилади. Электродвигателлар ISO 9001, ғилдиракнинг изоляцияси VIP 54 (44) меъёрий талабларга жавоб берадиган, Optibelt сифатли ремень узатмалар ёрдамида бирлаштириладиган электродвигателлар ишлаб чиқарилади.

Талаб бўйича вентиляторлар кўп тезликли двигателлар билан комплектланади. Кондиционердан чиқиш тирқишида юмшоқ қистирма ўрнатилади.



Икки ёқлама сўриб оладиган вентиляторлар



Шкив тупчаглари билан



Вентилятор – бўш ғилдирак $d = 250...1250$ мм



Кўриш учун люк



Узатмалар тўр билан ҳимояланган

Сувли, буғли ҳаво иситиш блоки

Кондиционерни биринчи ва иккинчи босқичида секцияларини сиртли иссиқлик алмаштиргич аппаратидаги мажбурий конвекция ҳисобига ҳавони иситиш вазифасини бажаради.

КЦКП кондиционерларидаги иссиқлик алмаштиргичлар алюмин фолгадан ясалган қобирғали гофрланган пластинали кўпқаторли чоксиз мис найчалардан ташкил топган рухланган пўлат каркасга кийдирилади. Иссиқлик ташувчи сифатида ҳарорати 180 °С ли сув 150 °С бўлган буғ, иссиқ ва ўта қиздирилган сув ишлатилади.

Иссиқлик ташувчи сув – тагидаги патрубок орқали, буғ юқори патрубок орқали узатилади. Блок ҳавони горизонтал оқимини таъминлайди. Блокнинг конструкцияси иссиқлик алмашинуви муҳитларни тўғри ва қарама – қарши оқим схемасини таъминлайди. Блоклар айланма каналли, қўлда ва электр узатмалар билан жиҳозлари билан ишлаб чиқарилади.

Блокдаги иссиқлик алмаштиргичлар уларни назоратқилиш имконияти бўлиши учун йўналтирувчи рельсларда ўрнатилади.

Патрубоклар панеллардан ўтиш жойида резина қистирмалар билан зичланади доим хизмат қилиш тарафига чиқарилган бўлади ва ҳаво чиқариш жўмраклари билан жиҳозланади.

Иссиқлик алмашгичларни иссиқлик тармоғига резбада, фланецли ёки пайвандлаш йўли билан улаш мумкин. Барча иссиқлик алмашгич қувурлар сиқилган ҳаво билан сув босими 1,8 МПа да синалади.

Иссиқлик алмашгичларнинг унумдорлиги истеъмолчининг шахсий буюртмасига асосан, эксплуатация жараёнида энергия тежамкорлигини юқори даражага эришиши имкониятини яратади.






Электр ёрдамида ҳавони иситиш блоки

Қобирғали, найчали (ТЭН) электроиситкичлар ишлатилади, ўзаро юлдузча кўринишда бир – бири билан бирлашган қуввати 33, 66,5; 100 % белгиланганда босқичма – босқич ёқилиши мумкин бўлган.

Электр иситкичлар секция ичида параллел қилиб бирлаштирилган. Электр иситкичнинг қобиғи рухланган пўлатдан тайёрланади. Қобирғалар юзасидаги ҳарорат 190 °С дан ошмайди.

Қизиб кетишидан ҳимоялаш учун ҳарорат реле ТРМ – 12 дан фойдаланилади.

Электр токидан ҳимоя қилиш даражаси Су 1 (ГОСТ 12.2.007.0) талабига жавоб бериши керак. Электрокалориферни қобиғида “ер” клеммаси мавжуд.



Сув ва фреон билан ҳавони совутиш блоки


Компрессор – конденсатор секцияларида ва сувли совуқлик қурилмаларидан фойдаланиб, ҳавонинг мажбурий конвекцияси ҳисобига ҳавони совутиш ёки қуритиш вазифасини бажаради. Мис алюминли иссиқлик алмашгич найчалардан ташкил топган бўлиб, найчаларга совуқ сув, фреон 22 ва бошқа совуқлик юритувчилар узатилади. Стандарт бўйича таглик, томчиушлагич ва сифон билан жиҳозланади.

Томчиушлагич – полипропилен профиль РЕНАУ ёки PROFILEX дан ясалади ва ҳаво тезлиги 2,5 м/с дан ошганда ўрнатилади.

Фреонли ҳаво совутгич сувлигидан тақсимловчи тугун ва совуқлик юритувчининг узатилиши конструкцияси билан фарқланади.

Фреонли буғлаткичнинг коллектори мис найчалардан тайёрланади.

Ҳаво совуткич блокини монтаж қилишда сифонни баландлигини ҳисобга олган ҳолда қўшимча рама инобатга олиш керак.



Компрессор – буғлатгич блоки

КЦҚП – 3.15,...12,5 Б кондиционерларни комплектлаш вазифасини бажаради.

Блоклар мис алюмин иссиқлик алмашгичлар (буғлаткич) билан жиҳозланган. Блокни ичида компрессор ўрнатилган бўлиб, совуқлик юритувчини узлуксиз буғланишини таъминлайди. Буғлатгич конденсатни йиғиш учун таглик билан ва томчиушлагич (ҳаво тезлиги 2,5 м/с дан ошганда) билан жиҳозланган.

Таглик сифон (гидрозатвор) билан жиҳозланган.

Блок автоматик элементлари совутиш контуридан ташкил топган.

Қувурларни барча улаш ишлари завод шароитида бажарилиши натижасида маҳсулотни юқори даражали мустаҳкамлигига эришилади



Фильтр блоки

КЦҚП кондиционерлари ячейкали (G3 тоифали қўпол тозалайдиган) ёки чўнтакли (қўпол ёки нозик тозаловчи G4 – F9 тоифали) филтрлар билан комплектланади.

Ячейкали филтрлар атмосфера ёки рециркуляцион ҳавони, чанглиги 1 мг/м³ дан кўп, чўнтакли филтрлар 0,5 ÷ 1 мг/м³ чегарасида (нозик тозалаш) вазифасини бажаради. Чўнтаклар нормал ёки турли хил материалларданясалиши мумкин. Ҳавони кўп босқичли тозалашда ишлатиш мумкин.

КЦҚП кондиционерларида F9 тоифали атмосфера ҳавосини тозалаш вазифасини бажаради. Ҳавони жуда юқори даражада тозаланиши кондиционердан ташқарида амалга

оширилади. Фильтрловчи элементлар йўналтирувчи рельсларга ўрнатилган рамага ўрнатилади ва хизмат кўрсатувчи томондан олинади. КЦКП – 50 ва ундан катта кондиционерларда фильтрловчи панель корпус ичида йиғилади, бу ерда фильтр монтаж рамаларга ўрнатилади ва махсус пружиналар билан маҳкамланади.



5 илова

Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар

1. Қандай ускуналарни марказий кондиционер дейилади?
2. Марказий кондиционерларни қандай биноларда лойиха этиш тавсия этилади?
3. Марказий кондиционерларда қандай асосий бўлимлар бор?
4. Ердамчи бўлимларга нималар киради?
5. Иситиш бўлими қандай конструктив элементлардан ташкил топган?
6. Иссиқлик ва масса алмашув бўлимининг вазифаси нима?
7. Вентилятор агрегати қандай вазифани бажаради?
8. Ҳавони кондициялаш тизимларида қандай вентиляторлар ишлатилади?
9. Фильтрнинг вазифаси нима?
10. Хизмат қилиш бўлими қаерда ишлатилади?
11. Ҳаво клапанларининг вазифаси нима?
12. Кондиционер бўлимлари қандай бирлаштирилади?

Мавзу бўйича билимларни чуқурлаштириш учун адабиётлар рўйхати

1. Рашидов Ю.К., Исманходжаева М.Р. “Ҳавони кондициялаш”. Ўқув қўлланма. Т., 2000 й
2. Каталог фирмы «Веза». М., 2008 г.
3. Ананьев В.А., Балугева Л.Н. и др. «Система вентиляции и кондиционирования воздуха». М. Евроклимат, 2000, 416 стр.

Кейинги мавзу бўйича тайёрланиб келиш учун саволлар

1. Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий бўлимлари:
2. Пуркаш бўлими, иситиш бўлими ва ҳавони совутиш бўлимлари.
3. Конструктив элементлари, тавсифлари.

10 - МАВЗУ	Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий блоклари: пуркаш блоки, иситиш блоки ва ҳавони совутиш блоклари. Конструктив элементлари, тавсифлари.
-------------------	--

1.1. Маърузани олиб бориш технологияси

<i>Ўқув соати – 2 соат</i>	Талабалар сони: 50 та
<i>Ўқув машғулот шакли</i>	Ахборотли маъруза
<i>Маъруза режаси</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий блоклари: 2. Пуркаш блоки, иситиш блоки ва ҳавони совутиш блоклари. 3. Конструктив элементлари, тавсифлари.
<i>Ўқув машғулотининг мақсади</i> Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий блоклари: пуркаш блоки, иситиш блоки ва ҳавони совутиш блоклари. Конструктив элементлари, тавсифлари мавзуси бўйича талабаларда билим кўникма ва малакаларини ошириш	
<i>Педагогик вазифалар:</i>	<i>ўқув фаолияти натижалари:</i>
Маърузада Марказий кондиционер КЦКП, унинг асосий база схемалари ва асосий бўлимларининг аҳамияти ва моҳиятини тушунтириш.	Маърузада Марказий иситиш тизимларини монтаж қилиш жараёнини тушунтириб бера оладилар.
Иситиш тизимлари монтаж қилишда зарур материаллар ва қурилмалар бўйича умумий тушунча	Иситиш тизимлари монтаж қилишда зарур материаллар ва қурилмалар ҳақида умумий тушунчасини айтиб бера оладилар.

Бериш	
Буғли иситиш тизимларини монтаж қилишнинг ўзига хосликлари ҳақида тушунча бериш	Буғли иситиш тизимларини монтаж қилишнинг ўзига хосликларини тушунтириб бера оладилар.
Тизимни синаш, ишни қабул қилиш ва топшириш, иситиш тизимларини монтаж қилишда меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича умумий тушунчалар беради	Тизимни синаш, ишни қабул қилиш ва топшириш, иситиш тизимларини монтаж қилишда меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича умумий тушунчалар ва тавсифларини тушунтириб бера оладилар
Ўқитиш воситалари	маъруза матни, компьютер слайдлари, доска
Ўқитиш усуллари	Ахборотли маъруза, блиц-сўров, кластер техникаси
Ўқитиш шакллари	Жамоада ишлаш
Ўқитиш шароити	Техник воситалар билан таъминланган, гуруҳларда ишлаш усулини қўллаш мумкин бўлган аудитория.
Мониторинг ва баҳолаш	оғзаки саволлар, тест саволлари,


Марказий иситиш тизимларини монтаж қилиш. Тизимни синаш, ишни қабул қилиш ва топшириш, иситиш тизимларини монтаж қилишда меҳнатни муҳофаза қилиш мавзусининг технологик харитаси

Иш босқич-лари	Ўқитувчи фаолиятининг мазмуни	Тингловчи фаолиятининг мазмуни
1- босқич. Мавзу га кириш (10мин)	1.4. Ўқув машғулоти мавзуси, режаси ва ўқув фаолияти натижаларини айтади. 1.5. Кластер усулида мавзу бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради. (1-илова). 1.6. Мавзунини жонлаштириш учун саволлар беради. (2-илова).	Тинглайдилар Тинглайдилар
2 - босқич. Асосий бўлим (50 мин)	2.1.Маъруза ўқийди. (4 - илова). 2.2.Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар беради(5 илова)	Тинглайдилар ва ёзадилар Тинглайдилар ва жавоб берадилар

<p>3-босқич.</p> <p>Яқунловчи (10 мин)</p>	<p>3.4. Машғулот бўйича яқунловчи хулосалар қилади. Мавзу бўйича олинган билимларни қаерда ишлатиш мумкинлиги маълум қилади.</p> <p>3.5. Мавзу бўйича билимларни чуқурлаштириш учун адабиётлар рўйхатини беради.(6-илова)</p> <p>3.6. Кейинги мавзу бўйича тайёрланиб келиш учун саволлар беради.(6-илова)</p>	<p>Саволлар берадилар.</p> <p>Тинглайдилар ва ёзадилар</p> <p>ёзадилар</p>
--	--	--

1-илова

Кластер усулида мавзу бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради



2-илова

Мавзунини жонлаштириш учун блиц сўров саволлари

7. Марказий кондиционернинг нечта база схемаси бор?
8. База схемалари нима билан фарқланади?
9. Пуркаш бўлими ОКФ-3 қандай вазифани бажаради?
10. Сеткали пуркаш бўлими ОКС-3 қандай вазифани бор?
11. Пуркаш бўлимининг конструктив элементлари нималардан ташкил топган?
12. Иситиш бўлимининг вазифаси нима?

4 - илова

КЦКП туридаги кондиционерлар

Каркас – панелли КЦКП турдаги (оқимли камералар) марказий кондиционерлар
Ту – 4862 – 011 – 40149 РОСС RU.АЯ04.ВО7508 каркас – панелли (оқимли камералар)ларнинг гигиеник сертификати



Кондиционерлар саноат корхоналари, жамоат ва маъмурий биноларни ҳавосини кондициялаш, вентиляцияси ва ҳаво билан иситиш тизимларида ишлатиш учун белгиланган.

КЦКП туридаги кондиционерларда ташқи ҳавога барча турдаги жараёнларни филтрлар, иситиш, совутиш, қуриштириш, намлаш, иссиқ ва совуқни рекуперация ва регенерация қилиш, шовқиндан ҳимоялаш, дезинфекциялаш (ҳавони зарарсизлантириш) ва хизмат қилувчи хоналарда берилган параметрли сунъий иқлимни таъминлайди.

Кондиционерлар автоматика ва созлаш жиҳозлари билан истеъмолчига етказиб берилади. Ҳавога ишлов беришнинг қабул қилинган технологик жараёни унга мос автоматика билан уйғунлашиб, параметрларни аниқ созланишини таъминлайди, кондиционерларни ишлатиш диапазонини кенгайтиради ва ҳар бир конкрет вариантларда оптимал энергетик ва иқтисодий маблағларни оптимал таъминлаш имконияти яратилади.

Кондиционерни танлаш учун махсус компьютер программаси “КЦКП” ишлаб чиқилган функционал блокларни ички ҳажмини герметикли иссиқлик ва шовқиндан изоляцияси кондиционерни айнан саноат корхонасида ўрнатишга имконият яратади.


Кондиционерларни ишлаб чиқариладиган номенклатураси қуйида схемада кўрсатилган.

Ўлчам катерлар

Хона ичидаги ҳаво ички блокнинг марказий панжараси орқали хонада сўриб олиниб, унда ҳаво барча ишловлар бўлиб, кейин тўртта йўналиш бўйича созловчи панжаралар орқали тақсимланади ва хонада бир меёрда ҳаво алмашинувини таъминлайди.

Кассета турдаги кондиционерларга хонага ташқи ҳавони бериш учун ҳаво каналларини улаш мумкин.

Кассета турида кондиционерларнинг совуқлик ва иссиқлик бўйича 6-13кВт.

СПЛИТ ТИЗИМЛИ КОНДИЦИОНЕРЛАРНИНГ КОНСТРУКЦИЯСИ.

Сплит тизимли кондиционерларнинг конструкцияси шу синфдаги кондиционерларга қўйиладиган асосий талаблар билан аниқланади:

- Арзон нарх;
- Шовқинсиз ишлаши;
- Ишончлилиқ ва мустаҳкамлик;
- Одий бошқарувчан;
- Кенг интервалда қўлланилиши;
- Жуда енгил ва тез монтаж қилинувчан.


Қуйида тавсифлари, конструкцияси, бошқариш алгоритми ҳамда паст хароратда адаптация ҳолатларини деворда ўрнатиладиган CP DELONGHI фирмасининг кондиционерларни кўриб чиқамиз.

Бу сериядаги деворда ўрнатиладиган кондиционерлар хоналарини совутиш ва иситиш режимида ишлайди, совуқлик ишлаб чиқариш қуввати 18÷5,0 кВт гача.


Кондиционерлар унча катта бўлмаган махсус турар жой ва офис хоналар учун ишлаб чиқилган. Ташқи ҳаво ва йилнинг қайси мавсумидан қатъий назар кондицияланувчи хоналарда юқори комфорт шароитни яратади.

Янги дизайнерлик ечимлар, ихчам бичмли кўриниши кондиционерни энг замонавий интерьерли хоналарга ўрнатиш мўлжалланган.

CP серияли кондиционернинг совутиш контурининг схемаси



Ташқи ва ички блокнинг таркибини кўрамиз:



1 – Ташқи блокда компрессор, 2 – тўртекламли клапан, 3 – иссиқлик алмашиғич конденсатор ва капилляр трубка жойлашган, 4 – компрессор шовқиндан химоя қатлам билан қопланган, 5 – конденсаторга ҳаво узатилиши вентилятор, 6 – қобиғнинг панжаралари, 7 – чиқарувчи панжара орқали амалга оширилади, 8 – совутиш контури найчаларини бирлаштириш икки ёқлама бирлаштириш клапани ва 9 – уч ёқлама клапан орқали амалга

оширилади, ташқи болкнинг иситиш жараёнидаги 10 – таглик, 11 – шудринг чиқарувчи патрубок, 12 – иссиқлик алмашувчи буғлатгич, 13 – буғлатгичга ҳаво оқими тангенциал вентилятор, 14 – панжара, 15 – кирувчи фильтр, 16 – йўналтирувчи жалюзи, 17 – ишлов берилган ҳавони хонага узатувчи, 18 – ташқи панель, 19 – ёруғлик диотлари, 20 – ҳарорат кўрсаткичи, 21 – бошқариш платаси, 22 – монтаж платаси, 23 – масофавий бошқариш пульта.

Қуйида совутиш кондиционерининг асосий элементларин кўриб чиқамиз

Компрессор – 3,5 кВт гача бўлган кондиционерларда SCROLL турдаги компрессорлар ишлатилади ва шовқинсиз ишлаш хусусиятига эга. 5 кВт моделларида поршенли компрессорлар ишлатилади.

Оқим созлагич – капилляр найчадан иборат.

Иссиқлик алмашгичлар – кўпқаторли мис найчалар қобиклари пластинкали.

Вентиляторлар – ташқи блокида айланиш тезлиги созланувчи ўқли вентиляторлар ўрнатилади. Ички блокда тангенциал турдаги вентилятор ўрнатилади. Бундай вентиляторлар конденсаторнинг ички блоки конструкцияси билан уйғунлашиб хонага чиқаётган ҳавони кенг оқимли ва кам чегарали шовқинда ишлайди.

Дренаж тизими – кондиционер ишлаш жараёнида буғлатгичдан ўтаётган ҳаводан сув буғлари (шудринг) ажралди. Ажралган сув буғлари таглик орқали кўчага ёки канализация тизимига чиқарилади.

Бошқарув тизим – микропроцессор асосида ажралган бўлиб кондиционерни турли режада ишлаши учун мураккаб бошқарув алгоритм талаб этилади.

Кондиционернинг асосий ишлаш режалари

Кондиционернинг турли моделларида албатта қуйидаги асосий режимларда ишлайди.

5. Совутиш (хона ҳароратини пасайтириш)
6. Иситиш (хона ҳароратини кўтариш)
7. Қуриштириш (хонадаги намликни пасайтириш)
8. Вентиляция режими

Совутиш жараёни

Хонадаги ҳаво ҳарорати берилган параметрдан юқори бўлганда кондиционерни совутиш режими ёқилади. Белгиланган ҳароратга эришилгандан сўнг ташқи блокдаги компрессор ва вентилятор ўчирилади.

Ташқи блокдаги вентиляторнинг айланиши ички блокнинг иссиқлик алмашгичдаги ҳароратига боғлиқ бўлган ҳолда, доимий шудринг тушиши босимини таъминлаш мақсадида созланади.

Ташқи ҳавонинг ҳарорати пасайганда, шу билан бирга шудринг тушиш босими ва ички блокдаги вентиляторнинг айланиши кондиционернинг ўчишигача камаяди.

Иситиш жараёни

Кондицияланувчи хонадаги ҳарорат пасайиб кетганда кондиционерни иситиш режимига ёқилади. Хонадаги белгиланган ҳароратга эришилгандан

сўнг ташқи блокдаги вентилятор ва компрессор ўчирилади. Ички блокдаги вентиляторни айланишини бошқариш худди совутиш режимидек бўлади.

Вентилятор режими

Кондиционернинг ташқи блокадаги компрессор ва вентиляторлар ўчирилади. Ички блокдаги вентилятор дистанцион бошқарув пульта белгиланган тезлиги бўйича ишлайди.

4-илова

Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар

1. Замонавий кондициялаш ускуналарининг афзалликлари нимада?
2. Замонавий кондициялаш тизимларининг қандай бўлимлари мавжуд?
3. Сплит тизимли кондиционерларнинг қандай туркумлари бор?

5-илова

Мавзу бўйича билимларни чуқурлаштириш учун адабиётлар рўйхати

4. Рашидов Ю.К., Исманходжаева М.Р. “Ҳавони кондициялаш”. Ўқув қўлланма. Т., 2000 й
5. Каталог фирми «Веза». М., 2008 г.
6. Ананьев В.А., Балугева Л.Н. и др. «Система вентиляции и кондиционирования воздуха». М. Евроклимат, 2000, 416 стр.

6-илова

Кейинги мавзу бўйича тайёрланиб келиш учун саволлар

1. Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлашда нималарга эътибор бериш керак?
2. Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура схемаси, туркумлари.
3. Марказий совуқлик билан таъминлаш.

14,15 - МАВЗУ	<p>Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура схемаси, туркумлари. Марказий совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимларидаги совуқлик юритувчилар. Совутиш машинаси ва унинг асосий элементлари: компрессор, буғлатгич, конденсатор ва созловчи вентел. Парокомпрессорли, абсорбцион совутиш машиналари, уларнинг конструктив элементлари. Чиллерлар, умумий маълумотлар. Таркиби ишлатилиш жараёни</p>
----------------------	--

1.1. Маърузани олиб бориш технологияси


<i>Ўқув соати – 2 соат</i>	Талабалар сони: 50 та
<i>Ўқув машғулот шакли</i>	Ахборотли маъруза
<i>Маъруза режаси</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлаш. 2. Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура схемаси, туркумлари. 3. Марказий совуқлик билан таъминлаш. 4. Ҳавони кондициялаш тизимларидаги совуқлик юритувчилар. 5. Совутиш машинаси ва унинг асосий элементлари: компрессор, буғлатгич, конденсатор ва созловчи вентел.
<p><i>Ўқув машғулотининг мақсади</i> Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура схемаси, туркумлари. Марказий совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимларидаги совуқлик юритувчилар. Совутиш машинаси ва унинг асосий элементлари: компрессор, буғлатгич, конденсатор ва созловчи вентел. Парокомпрессорли, абсорбцион совутиш машиналари, уларнинг конструктив элементлари. Чиллерлар, умумий маълумотлар. Таркиби ишлатилиш жараёни мавзуси бўйича талабаларда билим кўникма ва малакаларини ошириш.</p>	
<i>Педагогик вазифалар:</i>	<i>ўқув фаолияти натижалари:</i>
Маърузада Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлаш аҳамияти ва моҳиятини тушунтириш.	Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлашни тушунтириб бера оладилар.
Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура	Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура схемаси, туркумларини айтиб бера оладилар.

схемаси, туркумлари бўйича умумий тушунча бериш	
Марказий совуқлик билан таъминлаш жараёни ҳақида тушунча бериш	Марказий совуқлик билан таъминлаш жараёнини айтиб бера оладилар.
Ҳавони кондициялаш тизимларидаги совуқлик юритувчилар бўйича умумий тушунчалар беради	Ҳавони кондициялаш тизимларидаги совуқлик юритувчиларни тушунтириб бера оладилар
Совутиш машинаси ва унинг асосий элементлари: компрессор, буғлатгич, конденсатор ва созловчи вентел ҳақида тушунча бериш	Совутиш машинаси ва унинг асосий элементлари: компрессор, буғлатгич, конденсатор ва созловчи вентелни тушунтириб бера оладилар
Ўқитиш воситалари	маъруза матни, компьютер слайдлари, доска
Ўқитиш усуллари	Ахборотли маъруза, блиц-сўров, кластер техникаси
Ўқитиш шакллари	Жамоада ишлаш
Ўқитиш шароити	Техник воситалар билан таъминланган, гуруҳларда ишлаш усулини қўллаш мумкин бўлган аудитория.
Мониторинг ва баҳолаш	оғзаки саволлар, тест саволлари,

Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура схемаси, туркумлари. Марказий совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимларидаги совуқлик юритувчилар. Совутиш машинаси ва унинг асосий элементлари: компрессор, буғлатгич, конденсатор ва созловчи вентел. Парокомпрессорли, абсорбцион совутиш машиналари, уларнинг конструктив элементлари. Чиллерлар, умумий маълумотлар. Таркиби ишлатилиш жараёни мавзусининг технологик харитаси

Иш босқич- лари	Ўқитувчи фаолиятининг мазмуни	Тингловчи фаолиятининг мазмуни
1- босқич. Мавзу га кириш (10ми н)	<p>1.1. Ўқув машғулоти мавзуси, режаси ва ўқув фаолияти натижаларини айтади.</p> <p>1.2. Кластер усулида мавзу бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради. (1-илова).</p> <p>1.3. Мавзуни жонлаштириш учун саволлар беради. (2-илова).</p>	<p>Тинглайдилар</p> <p>Тинглайдилар</p>
2 - босқич. Асоси й бўлим (50 мин)	<p>2.1.Маъруза ўқийди. (4 -илова.).</p> <p>2.2.Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар беради(5 илова)</p>	<p>Тинглайдилар ва ёзадилар</p> <p>Тинглайдилар ва жавоб берадилар</p>

Кластер усулида мавзу бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради



Мавзуни жонлаштириш учун блиц сўров саволлари

1. Вентиляция тизимини монтаж қилишни тартибини тушунтиринг.
2. Шлакобетон плиталар ва асбестоцемент қувурлардан тайёрланган ҳаво ўтказувчи қувурлар қай тартибда монтаж қилинади?
3. Аспирацион тизим ҳаво ўтказувчи қувурларини қандай бурчак остида монтаж қилинади?
4. Пулатдан тайёрланган ҳаво ўтказувчи қувурлар асосан қандай усул билан монтаж қилинади?
5. Ҳаво ўтказувчи қувурларни бўяш ишлари тушунтириб беринг.

4 - илова

Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура схемаси, туркумлари. Марказий совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимларидаги совуқлик юритувчилар. Совутиш машинаси ва унинг асосий элементлари: компрессор, буғлатгич, конденсатор ва созловчи вентел. Парокомпрессорли, абсорбцион совутиш машиналари, уларнинг конструктив элементлари. Чиллерлар, умумий маълумотлар. Таркиби ишлатилиш жараёни

Марказий ҳавони кондициялаш тизимларини совуқлик билан таъминлаш

Йилнинг ёз фаслида совуқлик билан таъминлаш. Марказий ҳаво кондициялаш тизимларидаги кондицияланувчи ҳавонинг таркибий иссиқлигини камайтириш мақсадида ускуналар сифатида пуркаш бўлими (ОКФ-3) жуда кўп тарқалган ва кенг миқёсда ишлатилади. Унга совуқ сув совутиш станциясидан қувурлар орқали насос ёрдамида узатилади (4.16-расм).

Бундай чизмаларни татбиқ этишнинг асосий шартларидан бири, бу сув сақловчи бакларни пуркаш бўлимининг таглигидан паст жойлаштиришдир. Бу ҳолда пуркаш бўлимидан қайтаётган илиган сув пуркаш бўлимининг таглигидан йиғувчи бакка насоссиз ўз-ўзидан кайтади. Бу ердан илиган сув совутиш станциясининг буғлатгичига келади. Совиладиган сув қувурлар ичида, совутиш агенти эса буғлантирувчи қувурлар орасида характ килади. Совутиш агенти буғланганда сувнинг ҳарорати $\Delta t = 4 \div 8^{\circ}\text{C}$ гача камади. Ҳарорати $t_{wl} = 6 \div 7^{\circ}\text{C}$ қийматигача совиган сув бирлаштирилувчи қувурлар ёрдамида йиғувчи сув сифимининг иккинчи бўлимига ўтади.

18 - МАВЗУ	Ҳавони кондициялаш тизимлари совуқлик билан таъминлашнинг схемалари
-------------------	---


1.1. Маърузани олиб бориш технологияси

<i>Ўқув соати – 2 соат</i>	Талабалар сони: 50 та
<i>Ўқув машғулот шакли</i>	Ахборотли маъруза
<i>Маъруза режаси</i>	1. Ҳавони кондициялаш тизимлари совуқлик билан таъминлашнинг схемалари
<i>Ўқув машғулотининг мақсади</i> Ҳавони кондициялаш тизимлари совуқлик билан таъминлашнинг схемалари мавзуси бўйича талабаларда билим кўникма ва малакаларини ошириш.	
<i>Педагогик вазифалар:</i>	<i>ўқув фаолияти натижалари:</i>
Маърузада Ҳавони кондициялаш тизимлари совуқлик билан таъминлашнинг схемалари аҳамияти ва моҳиятини тушунтириш.	Ҳавони кондициялаш тизимлари совуқлик билан таъминлашнинг схемаларини тушунтириб бера оладилар.
<i>Ўқитиш воситалари</i>	маъруза матни, компьютер слайдлари, доска
<i>Ўқитиш усуллари</i>	Ахборотли маъруза, блиц-сўров, кластер техникаси
<i>Ўқитиш шакллари</i>	Жамоада ишлаш
<i>Ўқитиш шароити</i>	Техник воситалар билан таъминланган, гуруҳларда ишлаш усулини қўллаш мумкин бўлган аудитория.
Мониторинг ва баҳолаш	оғзаки саволлар, тест саволлари,

Ҳавони кондициялаш тизимларининг совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимини совуқлик билан таъминлашдаги структура схемаси, туркумлари. Марказий совуқлик билан таъминлаш. Ҳавони кондициялаш тизимларидаги совуқлик юритувчилар. Совутиш машинаси ва унинг асосий элементлари: компрессор, буғлатгич, конденсатор ва созловчи венел. Парокомпрессорли, абсорбцион совутиш машиналари, уларнинг конструктив элементлари. Чиллерлар, умумий маълумотлар. Таркиби ишлатилиш жараёни мавзусининг технологик харитаси

Иш босқич-лари	Ўқитувчи фаолиятининг мазмуни	Тингловчи фаолиятининг мазмуни
----------------	-------------------------------	--------------------------------

<p>1- босқич. Мавзу га кириш (10ми н)</p>	<p>1.1. Ўқув машғулотли мавзуси, режаси ва ўқув фаолияти натижаларини айтади. 1.2. Кластер усулида мавзу бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради. (1-илова). 1.3. Мавзуни жонлаштириш учун саволлар беради. (2-илова).</p>	<p>Тинглайдилар Тинглайдилар</p>
<p>2 - босқич. Асоси й бўлим (50 мин)</p>	<p>2.1.Маъруза ўқийди. (4 - илова.). 2.2.Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар беради(5 илова)</p>	<p>Тинглайдилар ва ёзадилар Тинглайдилар ва жавоб берадилар</p>




4.16-расм. Совутиш станцияси ёнида жойлашган пуркаш бўлими ОКФ-3 ни совуқлик билан таъминлаш чизмаси

1-суяқ совуқлик агенти, 2-буғлатгич, 3-совутиш станциясининг насоси, 4-илиқ сув бўлими, 5-тўплаш баки, 6-совуқ сув бўлими, 7-уч йўлли клапан, 8-пуркаш бўлимининг насоси, 9-қўшни кондинционернинг насоси, 10-илиқ сув қувири, 11-пуркаш бўлими, 12-кондицияланувчи ҳавонинг совуқлигини назорат қилувчи датчик, 13-рециркуляциян қувири, 14-тўкиш қувири, 15-канализацияга улаш қувири, 16-сув манбаи, 17-совуқлик агенти буғлари

Ҳавони кондициялаш ускуналаридаги сиртли иссиқлик алмашиши ва пуркаш бўлимларини совуқ сув билан таъминашнинг ёпиқ чизмасида (4.17-расм), совутиш станциясининг насоси 1-бак-компенсатор 2 орқали буғлатгич 3 нинг қувурлар аро оралиғидан ва сиртли совутиш 10 бўлимларидан совутилган сувни ҳайдайди. Пуркаш бўлимини совуқлик билан таъминлаш сув-сувли иссиқлик алмаштиргич орқали амалга оширилади.

Чизмада сиртли совутиш (БТМО-3) иссиқлик алмашгичларни совуқлик билан таъминлаш чизмаси келтирилган (Расм 4.17).



4.17-расм. Ҳаво кондициялаш ускуналаридаги сиртли иссиқлик алмашиши ва пуркаш (БТМО-3) бўлимини (ОКФ-3) совуқ билан таъминлашдаги ёпиқ чизма 1-совутиш станциясининг насоси, 2-бак компенсатор, 3-испаритель (буғлатгич), 4-пуркаш бўлимининг насоси, 5-сув-сувли иссиқлик алмашгич, 6-уч йўлли клапан, 7-назорат қилувчи кўрсаткич, 8-ОКФ-3 пуркаш бўлими; 9-сув манбаи, 10-сиртли совутиш бўлими (БТМО-3), 11-кенгайиш идиши, 12-сув тошиши қуври; 13-оқава сув учун варонка.

3-илова

Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар

1. Ҳавони кондициялаш тизимлари совуқлик билан таъминлашнинг схемалари

4-илова

Мавзу бўйича билимларни чуқурлаштириш учун адабиётлар рўйхати

1. Рашидов Ю.К., Исманходжаева М.Р. “Ҳавони кондициялаш”. Ўқув қўлланма. Т., 2000 й

2. Каталог фирмы «Веза». М., 2008 г.
3. Ананьев В.А., Балужева Л.Н. и др. «Система вентиляции и кондиционирования воздуха». М. Евроклимат, 2000, 416 стр.

5-илова

Кейинги мавзу бўйича тайёрланиб келиш учун саволлар

1. Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари.
2. Ҳавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланиш

19,20 - МАВЗУ	Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари. Ўзбекистон Республикасида ҳавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежаш ва ундан самарали фойдаланиш. Ҳавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланиш
--------------------------	--

1.1. Маърузани олиб бориш технологияси

<i>Ўқув соати – 2 соат</i>	Талабалар сони: 50 та
<i>Ўқув машғулот шакли</i>	Ахборотли маъруза
<i>Маъруза режаси</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари. 2. Ўзбекистон Республикасида ҳавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежаш ва ундан самарали фойдаланиш. 3. Ҳавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланиш
<i>Ўқув машғулотининг мақсади</i> Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари. Ўзбекистон Республикасида ҳавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежаш ва ундан самарали фойдаланиш. Ҳавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланиш мавзуси бўйича талабаларда билим кўникма ва малакаларини ошириш.	
<i>Педагогик вазифалар:</i>	<i>ўқув фаолияти натижалари:</i>
Маърузада Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари аҳамияти ва моҳиятини тушунтириш.	Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемаларини тушунтириб бера оладилар.
Ўзбекистон Республикасида ҳавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежаш ва ундан самарали фойдаланиш ҳақида тушунча бериш	Ўзбекистон Республикасида ҳавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежаш ва ундан самарали фойдаланиш жараёнини айтиб бера оладилар.

Хавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланиш хақида тушунча бериш	Хавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланиш жараёнини айтиб бера оладилар.
Ўқитиш воситалари	маъруза матни, компьютер слайдлари, доска
Ўқитиш усуллари	Ахборотли маъруза, блиц-сўров, кластер техникаси
Ўқитиш шакллари	Жамоада ишлаш
Ўқитиш шароити	Техник воситалар билан таъминланган, гуруҳларда ишлаш усулини қўллаш мумкин бўлган аудитория.
Мониторинг ва баҳолаш	оғзаки саволлар, тест саволлари,


Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари. Ўзбекистон Республикасида хавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежаш ва ундан самарали фойдаланиш. Хавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланиш мавзусининг технологик харитаси

Иш босқич-лари	Ўқитувчи фаолиятининг мазмуни	Тингловчи фаолиятининг мазмуни
1-босқич. Мавзуга кириш (10мин)	1.1. Ўқув машғулотини мавзуси, режаси ва ўқув фаолияти натижаларини айтади. 1.2. Кластер усулида мавзу бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради. (1-илова). 1.3. Мавзунини жонлаштириш учун саволлар беради. (2-илова).	Тинглайдилар Тинглайдилар
2 -босқич. Асосий бўлим (50 мин)	2.1.Маъруза ўқийди. (4 -илова.). 2.2.Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар беради(5илова)	Тинглайдилар ва ёзадилар Тинглайдилар ва жавоб берадилар

<p>3-босқич. Яқунловчи (10 мин)</p>	<p>3.1. Машғулот бўйича яқунловчи хулосалар қилади. Мавзу бўйича олинган билимларни қаерда ишлатиш мумкинлиги маълум қилади.</p> <p>3.2. Мавзу бўйича билимларни чуқурлаштириш учун адабиётлар рўйхатини беради.(6-илова)</p> <p>3.3. Кейинги мавзу бўйича тайёрланиб келиш учун саволлар беради.(6-илова)</p>	<p>Саволлар берадилар.</p> <p>Тинглайдилар ва ёзадилар</p> <p>ёзадилар</p>
---	--	--

2 - илова

Кластер усулида мавзу бўйича маълум бўлган тушунчаларни фаоллаштиради



2-илова

Мавзунини жонлаштириш учун блиц сўров саволлари

1. Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари неча турга булинади?
2. Ўзбекистон Республикасида хавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежашда қандай ютуқларга эришилган?
3. Хавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланишда қайси олимлар тажрибаларда синаб кўришган?

4 - илова

Хавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари

Ўзбекистон Республикасида ҳавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежаш ва ундан самарали фойдаланиш. Ҳавони кондициялаш тизимларида куёш энергиясидан фойдаланиш

Ҳавони кондициялаш тизимларининг (ҲКТ) принципиал чизмалари қуйидагиларга бўлинади:

- бир зонали тўғри оқимли марказий ҲКТ;
- кўп зонали тўғри оқимли марказий ҲКТ;
- махаллий-марказий ҲКТ;
- махаллий ҲКТ.


Бир зонали тўғри оқимли марказий ҲКТ

Иссиқлик ва намлик ажралиши майдони бўйича бир текисда ва бир хил бўлган катта хоналарда қўлланилади.

Хонага узатиладиган ҳавога ишлов бериш йил давомида марказий ҳавони кондициялаш қурилмасида (ҲКҚ) бажарилади. Иссиқлик режимларини бир текис ва бир хил бўлиши натижасида, ички ҳавонинг ҳароратини ушлаб турилиши ҳамма хоналарга узатиладиган ҳавонинг ҳароратини автоматик равишда ростлаш йўли билан таъминланади.


Одатда, ҲКТ йил давомида ишлаганда ички ҳавонинг ҳисобий параметрлари йилнинг иссиқ ва совуқ даврлари учун ҳар хил этиб белгиланади.

Кўп зонали тўғри оқимли марказий ҲКТ (4.10-расм) асосан иссиқлик ва намлик ажралишлари майдони бўйича бир текис ва бир хил бўлмаган катта хоналарда, ёки кўп хонали биноларда қўлланилади. Мазкур ҲКТда II босқич ҳаво иситкичлари ҳар бир зонанинг ҳаво узатиш қувурларида ўрнатилган бўлиб, зона ҳаво иситкичлари вазифасини бажаради.



Бир зонали тўғри оқимли марказий ҲКТ

1- иссиқликни қайта ишлатиш учун иссиқлик алмаштиргичлар; 2- I-чи босқич ҳаво иситкичлари; 3- суғориш камераси; 4- II-чи босқич ҳаво иситкичлари; 5- ҳаво узатиш вентилятори; 6- ҳаво тарқатиш қурилмалари; 7- хонадаги ҳароратни назорат қилиш датчиги; 8- сўрма вентилятор; 9- чиқариб юбориладиган ҳаводан иссиқликни қайтариб олиш учун иссиқлик алмаштиргичлар



Кўп зонали тўғри оқимли ХКТ
шартли белгилар 4.9-расм бўйича

Ички ҳавонинг ҳароратини доимий қилиб ушлаб туриш учун II босқич ҳаво исситкичларга ҳизмат кўрсатиш зоналарида ўрнатилган ҳароратни назорат қилувчи датчикларидан бошқарув импульслари берилади. расда кўрсатилган мисолда учта ҳизмат кўрсатиш зонаси қабул қилинган. Амалдаги ХКТда зоналар сони ўнлаб бўлиши мумкин.

Ўзбекистон шароитида ҳавони кондициялаш тизимларини совуқлик билан таъминлашда қуёшли абсорбцион совутиш машиналаридан фойдаланиш мумкин.

Бу совутиш машиналари парокмпрессорли совутиш машиналарига қараганда электр энергиясини анча тежашга имкон беради, чунки уларнинг ишлаши учун электр энергияси эмас, балки қуёш энергияси керак. Бундай совутиш машиналарининг яна бир афзаллиги шундан иборатки, улар қуёш энергияси қанча кўп бўлса, шунча кўп совуқлик ишлаб чиқаради, яъни қуёшли иссиқ кунларда ҳавони кондициялаш тизимларига кўпроқ совуқлик талаб қилинганлиги билан уларнинг унумдорлиги ҳам шунча ортиб боради.

Абсорбцион совутиш машиналарининг тузилиши хар хил бўлиши мумкин. Уларда компрессор вазифасини абсорбентлар (суюқ моддалар) ёки адсорбентлар (қаттиқ моддалар) бажаради. Бу моддалар совиганда совутиш агентининг паст


босимида буғларини ютиб (абсорбция ёки адсорбция ходисаси эвазига), қиздирилганида эса юқори босимда чиқаради, яъни компрессор каби ишлайди, лекин электр энергияси ўрнига иссиқлик (қуёш) энергиясини сарфлайди

Амалиётга татбиқ қилиш учун анъанавий (электр) энергиясини сарфламайдиган ва ишончлилиги бўйича устунликка эга бўлган адсорбцион гелиосовутиш қурилмалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Абсорбцион машиналарга қараганда (уларда электр энергияси суюқ абсорбентни хайдаш учун насосларда ишлатилади) адсорбцион машиналарда электр энергияси умуман ишлатилмайди, чунки қаттиқ адсорбент ҳаракатга келтирилмайди. Шунинг учун фақат шу турдаги совутиш машиналарини қўриб чиқамиз.

1977 йилда даврий ҳаракатли адсорбцион гелиосовутиш қурилмаси (4.14-расм) ихтиро қилинган (муаллиф Ю.К.Рашидов). Бу ихтирода икки фазали гидротермодинамик жараён қиш пайтида иситиш мақсадида совутиш агентини конденсация иссиқлигидан фойдаланиш ва ёз пайтида адсорбентни ўта қизиб кетишдан сақлаш орқали қурилманинг самарадорлигини ва фойдаланиш ишончлилигини ошириш учун қўлланилган.

Қурилма қаттиқ адсорбент 2 билан тўлдирилган генератор 1, конденсатор 3, суюқ совутиш агентининг ресивери 4, буғлагич 5, беркитиш вентили 7, беркитиш вентилли қувур 6, айланиб утиш қувури 8, тесқари клапан 9, қўшимча ресивер 10 ва 12 босим патронли термосозлагич вентиль 11 дан ташкил топган.

Қурилма икки режимда ишлайди. Ёзги режимда 6 қувурдаги беркитиш вентили 7 ёпик бўлади. Қуёш энергияси таъсирида генератор 1 да адсорбент 2 дан совутиш агентининг, масалан аммиакнинг буғлари ажралиб чиқади ва конденсатор 3 да суюлтирилади. Суюқ аммиак ресивер 4, буғлагич 5 ва қўшимча ресивер 10 да йиғилади.



4.14-расм. Даврий харакатли адсорбцион гелиосовутиши қурилмаси (А.С.661199, 1979 йил, №17 бюллетень)

1-генератор; 2-қаттиқ адсорбент; 3-конденсатор; 4-ресивер; 5-буғлатгич; 6-қувур;
7-беркитиш вентили; 8-айланиб утиш қувури; 9-тесқари клапан; 10-қўшимча
ресивер; 11-термосозлагич вентиль; 12-босим патрони

Термосозлагич вентиль 100°C га созланади. Ҳарорат бундан ошганда термосозлагич вентиль 11 очилади ва қўшимча ресивер 10 дан суёқ аммиак генератор 1 ни пастки қисмига қуйилади, унда капиллар кучлар таъсири натижасида 2 адсорбент бўйича кутарилиб уни ўта қизиб кетишдан химоялайди. Қуёш боткандан сўнг генератордаги адсорбент совийди ва аммиак буғларини шиддат билан ютади. Бунда қурилмада босим тушади, суёқ аммиак қайнайди ва совуқлик ишлаб чиқади.

Ёзги режимда қурилма кундузги иссиқлик, кечаси эса совуқлик ишлаб чиқади. Қишда беркитиш вентили 7 очик бўлади ва қурилма суёқлик ва буғ


каналлари бўлинган иссиқлик қувури (тепловая труба) каби ишлайди. Қуёш нурлари остида адсорбентдан ажралиб чиқадиган аммиак буғлари конденсаторга киради, унда конденсатланиб, конденсатор орқали оқиб ўтаётган сувни иситади. Суюқ аммиак 6 қувур бўйича генераторга тўкилади.

Кўриб чиқилган қурилманинг иқтисодий самарадорлиги ундан йил давомида иссиқлик ва совуқликни ишлаб чиқаришда фойдаланиш мумкинлигидадир.

Қуёшли даврий адсорбцион совутиш қурилмаларнинг камчиликлардан бири совуқликни кечаси ишлаб чиқаришидир, ҳавони кондициялаш тизимларига эса совуқлик асосан қуёш радиацияси биноларни энг қиздирган пайтида керак.

Бу камчилик Ю.К.Рашидов ихтиро қилган гелиoadсорбцион совутиш қурилмасида (4.15-расм) бартараф этилган.

Кундуз кун қуёш радиацияси таъсирида генератор 1 да каттиқ адсорбентдан юқори босим остида совутиш агентининг буғлари ажралиб чиқади. Эжектор 10 соплозида буғлар кенгайиб, буғлатгич 5 дан 7 тармоқ орқали совутиш агентининг буғларини сўриб олади. Буғлатгич 5 суюқ совутиш агенти қайнаб, совутиш амалини бажаради.



4.15-расм. Ю.К. Рашидовнинг гелиоадсорбцион совутиш қурилмаси (А.С.808794, 1981 йил, № 8 бюллетень)

1-генератор; 2-конденсатор; 3-дроссель вентили; 4-ресивер; 5-буғлатгич; 6,7-буғлатгични генератор билан боғланиш тармоклари; 8-генераторни конденсатор билан боғланиши; 9-тескари клапан; 10-эжектор

Буғлар аралашмаси конденсатор 2 киради, унда у атрофдаги ҳаво ёки сув билан суюлтирилади. Суюқ совутиш агенти дроссель вентили 3 орқали ресивер 4 киради, ундан эса буғлатгич 5 қўйилади. Бу пайтда тескари клапан 9 генератор 1 ва буғлатгич 5 орасидаги босимлар фарқи ҳисобига ёпик бўлади.

Қуёш радиацияси бўлмаган, сутканинг кечки ва тунги даврларида, генератор 1 ташқи ҳаво билан совитилади ва ундаги совитиш агентининг босими қаттиқ адсорбентдаги адсорбция ходисаси ҳисобига тушади. Генератор 1 даги босим буғлатгич 5 даги босимдан кам бўлиб қолади. Тескари клапан 9 очилади ва буғлатгичда суюқ совутиш агентининг совуқлик ишлаб чиқариш билан боғлиқ паст босимдаги қайнаши бошланади.

Пайдо бўлган совутиш агентининг буғлари генератор 1 га тармоқ 6 орқали киради ва қаттиқ адсорбент билан адсорбцияланади (ютилади). Эрталаб, қуёш чиққанда, қурилма юқорида қайд этилганидек, совуқлик ишлаб чиқаради.

4-илова

Маърузани мустаҳкамлаш учун саволлар

1. Ҳавони кондициялаш тизимларининг принципиал схемалари.
2. Ўзбекистон Республикасида ҳавони кондициялаш тизимидаги энергияни тежаш.
3. Ҳавони кондициялаш тизимларида қуёш энергиясидан фойдаланиш

5-илова

Мавзу бўйича билимларни чуқурлаштириш учун адабиётлар рўйхати

1. Рашидов Ю.К., Исманходжаева М.Р. “Ҳавони кондициялаш”. Ўқув қўлланма. Т., 2000 й
2. Каталог фирми «Веза». М., 2008 г.
3. Ананьев В.А., Балыева Л.Н. и др. «Система вентиляции и кондиционирования воздуха». М. Евроклимат, 2000, 416 стр.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan muhandislik-pedagogika instituti


Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji kafedrası

«Ventilatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari» fanidan


MASALALAR VA MASHQLAR TO'PLAMI

Tuzuvchilar: kat. o'q. Sh. Jo'rayev, kat.o'q. T.Qosimov

5111000-Kasb ta'limi (5340400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji) va 5340400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaj ta'lim yo'nalishlari uchun



Ventilatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari



NAMANGAN

Хаво алманишув жараёнларининг ҳисоби

Хаво алманишув жараёнини аниқлаш вентиляция қурилмасини танлашдаги асосий аниқланиши лозим бўлган масаларлардан биридир. Хаво алманишув деб хона хаво муҳитда санитар гигиеник даражани тامينлаш учун зарур бўладиган, вентиляция хаво миқдорига айтилади. **Вентиляция тизимларини ишга тушириш вақти.** Катта V хажмга эга бўлган хоналарда вентиляция тизимлари бирдан ишга туширилмайди, балки зарарли хаво концентрацияси рухсат этилган чегара Z_t етганда ва шу жумладан бунинг учун T_n вақт ўтгандан сўнг ишга тушириш лозим бўлади.

$$T_n = V (Z_t - Z_0) / Z \quad (8.1)$$

бу ерда $Z_0 - 1 \text{ м}^3$ хаводаги зарарли хавонинг бошланғич концентрацияси

Z - зарарли хаво миқдори.

Хона ичидаги асосий зарарли чиқитлар ортиқча иссиқлик, ортиқча намлик, ортиқча газ ва чанглар киради.

Хона ичидаги углекислий газ CO_2 чиқариб ташлаш шартига кўра хаво алманишувни аниқлаш ишлари.

Хаво алманишув ($\text{м}^3/\text{с}$) қўйидаги формула билан аниқланади.

$$L = G / (x_2 - x_1) \quad (8.2)$$

Бу ерда G – хона ичида ажралиб чиқаётган углекислий газ миқдори $\text{г}/\text{соат}$ ёки $\text{л}/\text{соат}$

x_1 – CO_2 нинг ташқари хаводаги ёки (оқма хаводаги) концентрацияси

x_2 – CO_2 нинг хона ичида рухсат этилган концентрацияси

CO_2 – жамоат ва турар – жойларда ажралиб чиқадиган асосий зарарли газлардан биридир.

Одамлардан ажралиб чиқадиган углекислий газ одамларнинг ёши ва улар бажараётган иш турига боғлиқ бўлади.

Одамлардан ажралиб чиқаётган CO_2 миқдори;

Одамлар ёши ва улар бажараётган иш турлари	CO_2 $\text{г}/\text{соат}$	CO_2 $\text{л}/\text{соат}$
Катта ёшдаги одамлар:		
Оғир жисмоний иш билан шуғулланганда	68	45
Енгил жисмоний иш билан шуғулланганда	45	30
Тинч ҳолатда бўлганда	35	23
Ёши 12га бўлган болалар	18	12

Хонада CO_2 нинг рухсат этилган концентрацияси

Хона ва ташкилот турлари	CO_2 $\text{г}/\text{кг}$	CO_2 $\text{л}/\text{м}^3$
Доимо одамларни турадиган жойлари (турар жойлар)	1,5	1,0
Касалхоналар	1,0	0,7
Одамларни даврий турадиган жойлари (ташкилотлар)	1,75	1,25
Одамларни қисқа вақтларда бўлиши	3	2

CO_2 нинг ташқи хаводаги таркибини қўйидагича қабул қиламиз:

Жой номлари	CO_2 $\text{г}/\text{м}^3$	CO_2 $\text{л}/\text{м}^3$
Қишлоқ жойлари учун	0,6	0,4
Шахар типидagi посёлкалар учун	0,7	0,47
Шахарлар учун	0,9	0,6

Мисол 8.1

200 кишига мўлжалланган мажлислар залида ажралиб чиқадиган CO_2 нинг камайтириш учун хаво алманишув L ни миқдорини аниқланг. Бунда битта одамдан ажралиб чиқадиган CO_2 нинг миқдори - 23 $\text{л}/\text{соат}$, хонада рухсат этилган CO_2 нинг концентрацияси $x_2=2 \text{ л}/\text{м}^3$, $x_1=0,6 \text{ л}/\text{м}^3$

Ечиш

(8.2) формулага асосан

$$L = 200 G (x_2 - x_1) = 200 * 23 / (2,0 - 0,6) = 3290 \text{ м}^3/\text{соат}$$

Мисол (8.2)

Хонага қисқа муддатга тўпланган 50 та одам йиғилди. Хонанинг ҳажми $V=1000\text{м}^3$.

Хонада мажлис бошлангандан қанча T_n вақт ўтгандан сунг оқма сўрма механик вентиляторни ишга туширишимиз лозим бўлади. Бошлангич маълумотларни аввалги мисолдан оламиз.

Ечиш

Хона ичида ажралиб чиқадиган CO_2 нинг миқдорини аниқлаймиз

$$G = 50 \cdot 23 = 1150 \text{ л /соат} \quad (8.1) \text{ формулага асосан}$$

$T_n = V (x_2 - x_1) / G = 1000 \cdot (2 - 0,6) / 1150 = 1,21$ соат демак вентиляцияни мажлис бошлангандан 73 минут ўтганда (1,21 соат) ишга тушириш лозим бўлади.

Хонадаги газларни ташқарига чиқаришдаги ҳаво алмашинувни аниқлаш.(м³/соат)

$$L = G / (Z_2 - Z_1) \quad (8.3)$$

Бу ерда G хона ичидаги ҳавфли газ (г /соат³)

Z_2 – Рухсат этилган газнинг концентрацияси мг/м³

Z_1 – Ташқи ҳаводаги газнинг концентрацияси мг/м³

Хонадаги чангларни ташқарига чиқаришдаги ҳаво алмашинувни аниқлаш.(м³/соат)

$$L = G_{\text{п}} / (S_2 - S_1) \quad (8.4)$$

Бу ерда $G_{\text{п}}$ хона ичидаги чанг миқдори (мг /соат³)

S_2 – Рухсат этилган чангнинг концентрацияси мг/м³

S_1 – Ташқи ҳаводаги чангнинг концентрацияси мг/м³

Меъёрлар бўйича хона ёки ишчи зонадаги рухсат этилган чанг миқдори 2-10 мг/м³дан ошмаслиги лозим бўлади.

Атмосфера ҳавосини ифлослантирувчи моддалар миқдорини ҳисоблаш.


Ишдан мақсад: Талабаларга саноат корхоналари ва автокорхоналардан атмосферага чиқариладиган чиқиндилар миқдорини ҳисоблаш йўллари йўргатиш.

Режа:

1. Атмосферадаги ифлослантирувчи моддаларнинг максимал миқдорини аниқлаш.
2. Вентиляция чиқиндилари баландлигини ҳисоблаш.
3. $x(m)$ масофадаги ифлослантирувчи моддаларнинг концентрациясини аниқлаш.
4. Чиқиндиларнинг рухсат этилган ташламасини аниқлаш.
5. Корхонанинг ҳавфлилик тоифасини аниқлаш.

1.Атмосферадаги ифлослантирувчи моддаларнинг максимал

миқдорини аниқлаш



1-расм.

Ягона нуқтали манбаларда чиқариш трубасининг тешиги айлана бўлганда ифлослантирувчи моддаларнинг атмосферадаги миқдори $x_m(m)$ масофадан чиқинди манбаигача бўлган ораликда ноқулай метеорологик шароитда ортиб боради ва қуйидаги формула орқали топилади:

$$C_m = \frac{AMFmn\eta}{H^2 \sqrt[3]{V_1 \Delta T}} \quad \text{мг/м}^3 \quad (1)$$

бу ерда: A - ҳаво ҳароратига боғлиқ коэффициент бўлиб, ҳудудлар бўйича қуйидагича олинади:

- а) 250 - Ўрта Осиёнинг Жанубий ҳудудлари учун;
- б) 200 - Ўрта Осиё, Қозоғистон, Кавказ, Молдавия, Сибир ва Узоқ шарқ мамлакатлари учун;
- в) 160 – Урал, Украина, Россия Федерациясининг шимол ва шимолий ҳудудлари учун;
- г) 140 - Москва ва Москва вилоятлари учун;

$M(g/s)$ - вақт бирлиги ичида атмосферага чиқарилган ифлослантирувчи модданинг массаси;

F - ҳаводаги ифлослантирувчи моддаларнинг чўкиш тезлигига боғлиқ бўлган ўлчовсиз коэффициент бўлиб, қуйидаги ҳолатлар учун қабул қиламиз:

- а) газ кўринишидаги ифлослантирувчи моддалар кичик дисперсияли чанг учун $F=1$ га тенг;

б) кичик дисперсияли аэрозоллар учун;

- тозалаш иншоатларининг самарадорлиги 75 % бўлганда $F=3$

- тозалаш иншоатларининг самарадорлиги 75-90 % бўлганда $F=2,5$

- тозалаш иншоатларининг самарадорлиги >90 % бўлганда $F=2$

H (м) – чиқинди чиқарувчи трубанинг баландлиги;

η – худуд рельефига таъсирни ҳисобга олувчи коэффициент;

ΔT (°C) – ҳаво ҳарорати билан атмосферага чиқарилаётган чиқинди ҳарорати орасидаги фарқ бўлиб у қуйидаги формула орқали топилади:

$$\Delta T = T_{г.х} - T_x \quad (2)$$

V_1 (м³/с) – газ ҳаво аралашмаси сарфи, у қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$V_1 = \frac{\pi D^2}{4} w_0 \quad (3)$$

бу ерда: D (м) – тутун чиқарувчи труба тешигининг диаметри

w_0 (м/с) – чиқинди манбаи тешигидан чиқаётган газ ҳаво аралашмасининг ўртача тезлиги.

m и n - чиқинди манбаи тешигидан чиқаётган газ ҳаво аралашмасининг чиқиш шароитини ҳисобга олувчи коэффициент.

Коэффициентлар m и n ни ҳисоблашдан олдин ёрдамчи параметрларни ҳисоблашга тўғри келади, бу параметрлар f , v_m , v'_m , f_e .

$$f = 1000 \frac{w_0^2 D}{H^2 \Delta T} \quad (4)$$

$$v_m = 0.65 \sqrt[3]{\frac{V_1 \Delta T}{H}} \quad (5)$$

$$v'_m = 1.3 \frac{w_0 D}{H} \quad (6)$$

$$f_e = 800 (v'_m). \quad (7)$$

m - коэффициент формула буйича f параметрга боғлиқ ҳолда топилади.

Агар $f < 100$ бўлса **m** – коэффициент куйидаги формуладан топилади:


$$m = \frac{1}{0.67 + 0.1\sqrt{f} + 0.34\sqrt[3]{f}} \quad (8.1)$$

Агар $f \geq 100$ булса **m** – коэффициент куйидаги формуладан топилади:

$$m = \frac{1,47}{\sqrt[3]{f}} \quad (8.2)$$

Агар $f_e < f < 100$ булса **m** – коэффициент кўрсаткичи $f = f_e$ га тенг бўлади.

Агар $f_e < f < 100$ булса **m** – коэффициент кўрсаткичи $f = f_e$ га тенг бўлади.



2- расм.

n – коэффициент v_m параметрга боғлиқ ҳолда топилади:

Агар $f < 100$ ва $v_m \geq 2$ бўлса,

$$\mathbf{n=1} \quad (9.1)$$


Агар $0,5 \leq v_m < 2$ бўлса,

$$n = 0,532v_m^2 - 2,13v_m + 3,13 \quad (9.2)$$

Агар $v_m < 0,5$ бўлса,

$$\mathbf{n = 4,4v_m} \quad (9.3)$$

Агар $f \geq 100$ ёки $\Delta T \approx 0$ бўлса **n** – коэффициент куйидаги график орқали топилади:



3- расм.

Агар $f \geq 100$ (ёки $\Delta T \approx 0$) ва $v'_m \geq 0,5$ (ҳарорати совуқ бўлган чиқиндилар) бўлса ҳисоблашларда (1) – формуладаги C_m ўрнига қуйидаги формулани қабул қиламиз;

$$C_m = \frac{AMFn\eta}{H^{4/3}} K; \quad (10)$$

бу ерда: K - қуйидаги формула орқали топилади:

$$K = \frac{D}{8V_1} = \frac{1}{7,1\sqrt{\omega_0 V_1}} \quad (11)$$

Агар $f < 100$ ва $v'_m < 0,5$ ёки $f \geq 100$ ва $v'_m < 0,5$ (шамол тезлиги хавфсиз бўлган ҳолларда) бўлса (1) – формуладаги C_m ўрнига қуйидаги формулани қабул қиламиз;

$$C_m = \frac{AMFm'\eta}{H^{7/3}} \quad (12)$$

бу ерда: $f < 100$, $v'_m < 0,5$ бўлса $m' = 2,86$ m

$f \geq 100$, $v'_m < 0,5$ бўлса $m' = 0,9$ га тенг бўлади.

Эслатма: (10) ва (12) – формулалар (1) – формуланинг умумий кўринишидаги ҳолати ҳисобланади.

2. Вентиляция чиқиндилари баландлигини ҳисоблаш.

Ер юзасида зарарли чиқиндиларнинг йўл қўйиладиган концентрациясини таъминловчи трубанинг керакли баландлиги H кўйидагича аниқланади:

2.1 Чиқинди чиқариш учун керакли баландлик (H) ҳисобланади: (3-расм)

$$H = \sqrt{\frac{235M_0}{v_{ш} \cdot C_{\max}}}; \quad (13)$$

Бу ерда: M_0 - атмосферага чиқариладиган зарарли чиқиндиларнинг максималл миқдори, г/с;

$v_{ш}$ - 10 м баландликда шамолнинг ҳисобланган тезлиги м/с;

C_{\max} – ер сатҳи даражасидаги зарарли чиқиндиларнинг йўл қўйиладиган бир марталик концентрацияси ишлаб чиқариш биносидаги ЙҚБК нинг 30% га тенг деб қабул қилинади.

2.2 Труба (кувур) оғзидан ҳаво оқимининг кўтарилиши (h) ҳисоблаб чиқарилади.

$$\Delta h = \frac{1,9d_0v_0}{v_{ш} \cdot \varphi}; \quad (14)$$

Бу ерда: d_0 – кувур оғзининг диаметри;


V_0 – кувур оғзидан газ – ҳаво оқимининг чиқиш тезлиги м/с;

φ – кувур баландлигига кўра шамол тезлигига тузатиш коэффиценти (справка материали).

масалан, $h = 10$ м лигида $\varphi = 1,0$; $h = 40$ м лигида $\varphi = 1,3$; $h = 60$ м лигида $\varphi = 1,4$; $h = 100$ м лигида $\varphi = 1,5$; ва ҳоказо.

2.3 Қувурнинг керакли баландлиги h_k (м) аниқланади:

$$h_k = H - \Delta h; \quad (15)$$



4- расм. Ер сатхидаги зарарли чиқиндиларнинг
максималл ифлосланиш жойи.

3. X(m) масофадаги ифлослантирувчи моддаларнинг концентрациясини аниқлаш.

Чиқинди манбаининг $x_m(m)$ масофасида ифлослантирувчи моддаларнинг ер усти концентрацияси C (mg/m^3) ноқулай метеорологик шароитда максимал даражада ортади ва қуйидаги формула бўйича топилади:

$$X_m = \frac{5 - F}{4} dH; \quad (16)$$

Бу ерда: d – ўлчовсиз коэффициент бўлиб, $f < 100$ бўлганда

Қуйидаги формула орқали топилади:

$$v_m \leq 0,5 \text{ бўлганда} \quad d = 2,48(1 + 0,28\sqrt[3]{f_e}) \quad (17.1)$$

$$0,5 < v_m \leq 2 \text{ бўлганда} \quad d = 4,95v_m(1 + 0,28\sqrt[3]{f}) \quad (17.2)$$

$$v_m > 2 \text{ бўлганда} \quad d = 7\sqrt{v_1}(1 + 0,28\sqrt[3]{f}) \quad (17.3)$$

Агар $f > 100$ ёки $\Delta T \approx 0$ бўлса d кўрсаткич қуйидаги формуладан топилади:

$$v_m \leq 0,5 \text{ бўлганда, } d = 5,7 \quad (18.1)$$

$$0,5 < v'_m \leq 2 \text{ бўлганда, } d = 11,4v_m \quad (18.2)$$

$$v'_m > 2 \text{ бўлганда, } d = 16\sqrt{v_m^1} \quad (18.3)$$

Шамолнинг хавфли тезлик кўрсаткичи u_m (м/с) флюгер даражада (ердан 10 м баландликда) ҳаво таркибидаги ифлослантирувчи моддаларнинг концентрацияси ортиб боради ва $f < 100$ бўлганда қуйидаги формулалар орқали топилади:

$$v_m \leq 0,5 \text{ бўлса, } u_m = 0,5 \quad (19.1)$$

$$0,5 < v_m \leq 2 \text{ бўлса, } u_m = v_m \quad (19.2)$$


$$v_m > 2 \text{ бўлса, } u_m = v_m (1 + 0,12\sqrt{f}) \quad (19.3)$$

$f > 100$ ва $\Delta T \approx 0$ бўлганда u_m миқдори қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$v'_m \leq 0,5 \text{ бўлганда, } u_m = 0,5 \quad (20.1)$$

$$0,5 < v'_m \leq 2 \text{ бўлганда, } u_m = v'_m \quad (20.2)$$

$$v'_m > 2 \text{ бўлганда, } u_m = 2,2v'_m \quad (20.3)$$



5-расм

Ифлослантирувчи моддаларнинг ҳаводаги концентрациясининг максимал миқдори $c_{ми}$ (мг/м³) ноқулай метеорологик шароит ва шамол тезлигида u (м/с), хавфли шамол тезлигига боғлиқ бўлади ва қуйидаги формула орқали топилади:

$$c_{ми} = \Gamma c_m \quad (21)$$

бу ерда, Γ – ўлчовсиз миқдор бўлиб 3- расмдаги u/u_m нисбатдан топилади ёки қуйидаги формула орқали топилади:

$$u/u_m \leq 1 \text{ бўлганда,} \quad (21.1)$$

$$r = 0,67(u/u_m) + 1,67(u/u_m)^2 - 1,34(u/u_m)^3$$

$$u/u_m > 1 \text{ бўлганда,} \quad (21.2)$$

$$r = \frac{3(u/u_m)}{2(u/u_m)^2 - (u/u_m) + 2}$$

чиқинди манбаидан x_{mu} (м) масофада ноқулай метеорологик шароит ва шамол тезлиги таъсири натижасида ҳаводаги ифлослантирувчи моддалар концентрациясининг максимал миқдори C_{mu} (мг/м³) ортиб боради ва қуйидаги формула орқали топилади:

$$x_{mu} = px_m \quad (22)$$

бу ерда, p – ўлчовсиз коэффициент бўлиб, формула бўйича u/u_m нисбатга боғлиқ ҳолда топилади:

$$u/u_m \leq 0,25 \text{ бўлганда,} \quad p=3 \quad (22.1)$$

$$0,25 < u/u_m \leq 1 \text{ бўлганда,} \quad p = 8,43(1 - u/u_m)^5 + 1 \quad (22.2)$$

$$u/u_m > 1 \text{ бўлганда,} \quad p = 0,32u/u_m + 0,68 \quad (22.3)$$

Чиқинди манбаидан ҳар хил x (м) масофадаги факел ўқи бўйича хавфли шамол тезлиги таъсирида тарқалаётган ҳаводаги ифлослантирувчи моддаларнинг концентрацияси c (мг/м³) қуйидаги формула орқали топилади:

$$c = s_1 \cdot c_m \quad (23)$$

формуладаги s_1 – ўлчовсиз коэффициентни аниқлашдан олдин x/x_m мунособатни аниқлаб оламиз

$x=50\text{м}$	x/x_m
$x=100\text{м}$	x/x_m
$x=200\text{м}$	x/x_m
$x=400\text{м}$	x/x_m
$x=1000\text{м}$	x/x_m
$x=3000\text{м}$	x/x_m

x/x_m бўлган нисбатлар учун қуйидаги формуладан фойдаланиб s_1 – ўлчовсиз коэффициентни топамиз:

$$x/x_m \leq 1 \text{ бўлганда,} \quad s_1 = 3 \cdot (x/x_m)^4 - 8 \cdot (x/x_m)^3 + 6 \cdot (x/x_m)^2 \quad (23.1)$$

$$1 < x/x_m \leq 8 \text{ бўлганда,} \quad s_1 = \frac{1,13}{0,13(x/x_m)^2 + 1} \quad (23.2)$$

$$F < 1,5 \text{ ва } x/x_m > 8 \text{ бўлганда, } s_1 = \frac{1}{3,58(x/x_m)^2 - 35,2(x/x_m) + 120} \quad (23.3)$$

$$F > 1,5 \text{ ва } x/x_m > 8 \text{ бўлганда, } s_1 = \frac{1}{0,1(x/x_m)^2 + 2,47(x/x_m) - 17,8}; \quad (23.4)$$

Ер устида жойлашган пастки манбалари (баландлиги 10 м дан юқори бўлмаган) учун $x/x_m < 1$ бўлганда s_1 миқдор $s_{н1}$ миқдорга ўзгаради ва қуйидаги формула орқали топилади:


$$2 \leq H < 10 \text{ бўлганда, } s_{н1} = 0,125 \cdot (10 - H) + 0,125 \cdot (H - 2) \cdot s_1; \quad (24)$$

Ҳар хил масофадаги ифлослантирувчи моддаларнинг концентрациясини топамиз

$x = 50\text{м}$	$c = s_1 \cdot c_m;$
$x = 100\text{м}$	$c = s_1 \cdot c_m;$
$x = 200\text{м}$	$c = s_1 \cdot c_m;$
$x = 400\text{м}$	$c = s_1 \cdot c_m;$
$x = 1000\text{м}$	$c = s_1 \cdot c_m;$
$x = 3000\text{м}$	$c = s_1 \cdot c_m;$



Хар хил масофадаги ифлослангивчи моддаларнинг концентрацияси.



4. Чиқиндиларнинг рухсат этилган ташламасини аниқлаш

Чиқинди газларнинг рухсат этилган ташламасини қуйидаги формула орқали топилади:

$$PЭТ_{.м} = \frac{(PЭК - C_{\phi})H}{AFMmn} \sqrt{V_1 \Delta T} ; \text{ т/й} \quad (25)$$

Бу ерда: C_{ϕ} – фоновой концентрация;

Агар қурулиш ҳудуди учун атмосферадаги зарарли моддаларнинг фоновой концентрацияси - C_{ϕ} белгиланган бўлса, унда қуйидаги формулалар бўйича ташламаларни ҳисоблашда РЭК ўрнига РЭК - C_{ϕ} қиймати қабул қилинади.

$$C_{\phi} = \frac{PЭК H^2 \sqrt{V_1 \Delta T}}{AFmn} ; \quad (26)$$

5. Корхонанинг хавфлилик тоифасини аниқлаш.

Корхонанинг хавфлилик тоифасини аниқлашни Табиатни муҳофаза қилиш давлат Қўмитаси томонидан ишлаб чиқилган ва тасдиқланган, бошқарув ҳужжати асосида қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$F = \frac{M}{K}; \quad (27)$$

Бу ерда: M - 1 йиллик корхонадан чиқадиган чиқиндилар йиғиндиси, т/й;
 K – коэффициент.

F – корхонанинг хавфлилик категориясини характерловчи фактор бўлиб, у қуйидагича бўлади:

$F > 100$	бўлса,	I тоифа
$50 \leq F \leq 100$	бўлса,	II тоифа
$25 \leq F \leq 50$	бўлса,	III тоифа
$F < 25$	бўлса,	IV тоифа

K – коэффициентни топиш учун қуйидаги формула орқали топилади:

$$K = \frac{M_1 * PЭК_1 + M_2 * PЭК_2 + M_3 * PЭК_3 + \dots + M_n * PЭК_n}{M_1 + M_2 + M_3 + \dots + M_n}; \quad (28)$$

Бу ерда: $M_1, M_2, M_3, \dots, M_n$ лар ифлослантивувчи моддалар массалари.

$PЭК_1, PЭК_2, PЭК_3, \dots, PЭК_n$ лар массалари M_1, M_2, M_3, \dots

M_n бўлган моддаларнинг рухсат этилган чегаравий концентрацияси.

Амалий машғулот бўйича назорат саволлари.

1. Атмосфера ҳавосини ифлослантивувчи асосий моддалар.
2. Атмосфера ҳавоси таркибидаги ифлослантивувчи моддаларнинг концентрацияси қандай топилади?
3. A, F, m ва n коэффициентлар нимани билдиради?
4. ЧРЭК (Чиқиндиларнинг рухсат этилган концентрацияси) нима ва унинг бирлиги?
5. РЭМ (Рухсат этилган меъёр) нима, унинг бирлиги ва қандай топилади?
6. Коэффициент A қандай топилади?
7. Коэффициент F қандай топилади нимага боғлиқ?
8. Ифлослантивувчи моддалар ҳаводаги концентрациясининг ошиши нималарга боғлиқ?

9. Чиқиндилар манбаининг х (м) масофаси деганда нимани тушунаси?
10. Чиқинди манбаидан ҳар хил масофаларда ифлослантирувчи моддаларнинг концентрацияси қандай бўлади?
11. Ҳисоблашлардан сўнг инженер эколог сифатида қандай тавсияларни бериш мумкин?

Ифлослантирувчи моддаларнинг рухсат этилган концентрацияси.

(О.Қ.Қудратов “Саноат экологияси” – Тошкент 2003 й.)

1-жадвал

Ифлослантирувчи моддаларнинг номланиши	РЭЖ бир марталик максималл, мг/м ³	РЭЖ ўртача суткалик, мг/м ³
Азот икки оксиди	0,085	0,04
Азот оксиди (NO ₂)	0,4	0,02
Сульфат ангидрид	0,5	0,05
Аммиак	0,2	0,04
Бенз(а)пирен	—	0,1 мкг/100м ³
Заҳарли моддалар	0,5	0,15
Симоб металли	—	0,0003
Қурғошин ва унинг қўшилмаси	—	0,0003
Углерод оксиди	5	3
Қурум чанги ИЭС	0,05	0,02
Формальдегид	0,35	0,003
Хлор	0,1	0,03
Бензол	0,1	0,05
Метанол	0,2	0,1
(H ₂ SO ₄)	0,1	0,03
Сульфит ангидрид	0,3	0,02
Водород сульфит	0,008	0,008
Қаттиқ заррачалар (чанг)	0,2	0,05

Циклогексан	0,2	0,2
Фтор бирикмалари	0,02	0,005
Аммоний нитрати аммиакли силитра)	-	0,30
Анилин	0,050	0,03

Давоми

Ифлослантирувчи моддаларнинг номланиши	РЭЖ бир марталик максималл, мг/м ³	РЭЖ ўртача суткалик, мг/м ³
Ацетон	0,350	0,350
Ацетофенон	0,003	0,003
Бром	-	0,04
Бутан	200	-
Бутилен	3,0	3,0
Темир оксиди (темирга қайта ҳисобланганда)	-	0,04
Темир сульфат (темирга қайта ҳисобланганда)	-	0,007
Темир хлорид (темирга қайта ҳисобланганда)	-	0,004
Ксилол	0,200	0,200
Магний оксиди)	0,400	0,050
Магний хлорати	-	0,300
Металл симоби	-	0,0003
Симоб ацетати	-	0,0003
Симоб (II) хлориди	-	0,0003
Куйинди	0,15	0,05
Водород сульфит	0,008	-
Углерод сульфит	0,03	0,005
Хлороводород	0,20	0,20

Хлорбензол	0,10	0,10
Циклогексанол	0,06	0,06
Циклогексанон	0,04	-
Рух оксиди	-	0,05
Этилен оксиди	0,30	0,030

№1. Ҳона ичидаги параметрлар t_x қуйидагича қийматларга эга бўлганда:

$d_x = 8$ г/кг;

$p_x = 9,65$ мм. рт.ст;

$t_x = 18$ °С; унинг нисбий намлигини аниқланг.

№2. $G = 20000$ кг/с иситилган ҳаво қуйидаги параметрлар: $t = 22$ °С; $\varphi = 4$ %, $d = 0,41$ г/кг билан марказий кондиционернинг пуркаш бўлимида намланади. Пуркаш бўлимидан сўнг ҳавонинг параметрлари: $t_2 = + 7,5$ %; $\varphi_2 = 95$ %. Пуркаш бўлимидан чиққан ҳавонинг таркибий намлиги d_2 ва бўлимда буғланган сувнинг сарфи аниқлансин.

№3. Қуйидаги бошланғич параметрларга эга бўлган $t = +24$ °С; $\varphi = 60$ %, ва $p_6 = 760$ мм т.ст. нам ҳавонинг ҳажмий оғирлиги аниқлансин.

№4. Қуйидаги бошланғич параметрларга эга бўлган: $t = +24$ °С; $\varphi = 60$ % ва $P_6 = 760$ мм. рт.ст. нам ҳавонинг таркибий иссиқлиги аниқлансин.

№5. Параметрлари $t_T = -24$ °С; $U_T = -5,6$ к.кал/кг бўлган ташқи ҳаво $G = 3600$ кг/соат, биринчи босқич иситиш бўлимида иситилади. Иситилган ҳавонинг параметрлари ва биринчи босқич иситиш бўлимида сарф бўладиган иссиқлик аниқлансини.

№6. Қуйидаги бошланғич параметрларга эга бўлган: температураси $t = +24$ °С; таркибий намлиги $d = 0,7$ г/кг; марказий кондиционернинг пуркаш бўлимида $\varphi_2 = 95$ % гача намланади. Пуркаш бўлимидан чиққан ҳавонинг температураси t_2 , d_2 , I_2 сувнинг температураси ва сарфи G_w аниқлансин.

№7. Марказий кондиционернинг пуркаш бўлимидан чиқаётган $G = 8000$ к/соат, температураси $t_2 = +12$ °С; ва нисбий намлиги $\varphi_2 = 95$ % га тенг. Ҳонага узатилаётган ҳавонинг таркибий намлиги $d_2 = 9,2$ г/кг бўлиши керак. Ҳавонинг таркибий намлиги $d = 9,2$ г/кг бўлиши учун параметрларга $t_T = 31,5$ °С, $I_T = 13,5$ ккал/кг, эга бўлган ташқи ҳаво билан аралаштирилади. Аралаштириш учун бериладиган ҳаво сарфи аниқлансин.

№8. Нам ҳавонинг температураси $t = +18$ °С; таркибий намлиги $d = 7,0$ г/кгунинг таркибий иссиқлик ва нисбий намлиги аниқлансин атмосфера босими $P_6 = 745$ мм. рт.ст.

№9. Нам ҳавонинг температураси $t_1 = 18$ °С; нисбий намлиги $\varphi_2 = 53$ % атмосфера босими $P_6 = 745$ мм. рт.ст.бўлганда шудринг тушиш температураси аниқлансин.

№10. Нам ҳавонинг температураси $t_1 = 18^{\circ}\text{C}$; нисбий намлиги $\varphi_2 = 53\%$ атмосфера босими $P_6 = 745$ мм. рт.ст. бўлганда ҳавонинг намланиш температурасини аниқланг.

№11. Қуйидаги параметрли:

$G = 310000$ кг/с, температураси $t_1 = -16^{\circ}\text{C}$, $I_T = 3,4$ ккал/кг, ташқи ҳаво калориферда $t_2 = +24^{\circ}\text{C}$ гача исистилади, атмосфера босими $P_6 = 745$ мм. рт.ст.; иситилган ҳавонинг параметралари d_2 , I_2 φ_2 ва калорифердаги иссиқлик аниқлансин.

№12. Бошланғич параметрлар:

$G = 17400$ кг/с, температураси $t_1 = +32^{\circ}\text{C}$, $\varphi_2 = 42\%$ бўлган ташқи ҳаво иссиқлик ва масса алмашинуви бўлимида $\varphi = 95\%$ гача совитилади. Атмосфера босими $P_6 = 745$ мм. рт.ст.; марказий кондиционернинг иссиқлик ва масса алмашув бўлимида совитилган ҳавонинг параметрлари ва иссиқлик, масса алмашув бўлимининг совуқлик унумдорлиги Q_c ни аниқланг.

№13. Бошланғич параметрлар:

$t_1 = +26^{\circ}\text{C}$, $\varphi_2 = 52\%$ $P_6 = 745$ мм. рт.ст. $G = 17400$ кг/с, бўлган ташқи ҳаво $t_2 = +6^{\circ}\text{C}$ гача совутилади. Совитилган ҳавонинг параметрлари, иссиқлик ва совуқлик унумдорлиги Q_c аниқлансин.

Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta'limini qayta tashkil etishga kirishildi. Hozirgi kunda bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan qamrab olgan 442 o'quv yurti, shu jumladan, 209 kasb-hunar maktabi, 180 kasb-hunar litseyi va 53 biznes-maktab ishlab turibdi. Bugungi kunda boshlang'ich kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'qituvchi va malakali mutaxassislar ishlamoqda.

Respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 o'rta kasb-hunar ta'limi o'quv yurti ishlab turibdi. Ularda qariyb 16 ming o'qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar mehnat qilmoqda.

O'zbekiston oliy maktabi tizimi 58 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 16 universitet va 42 institutni o'z ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta'lim olmoqda; 16 universitetning o'n ikkitasi O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18,5 ming o'qituvchining 52 foizi fan doktori va fan nomzodlaridir. Oliy ta'limda kadrlar tayyorlashni markazlashtirishdan xususiy yo'nalishga o'tkazish ishi olib borilmoqda, o'quv yurtlarining tarmog'i kengaymoqda, universitet ta'limi rivojlanmoqda. Bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy maktabni ko'p bosqichli tizimga o'tkazish amalga oshirilmoqda. Abiturientlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullari joriy etilmoqda.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar sifatiga oshgan talablarga muvofiq aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash ishi kengaymoqda. Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etildi. Respublikada qariyb 4 ming aspirant bo'lib, ulardan 69 foizi oliy ta'lim tizimida va 31 foizi ilmiy-tadqiqot institutlarida ta'lim olmoqda. Jami ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning 8 foizini fan doktorlari va 37 foizini fan nomzodlari tashkil etadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida 23 institut, 16 fakul tet, 4 markaz va 14 malaka oshirish kurslari ishlab turibdi.

Iqtidorli bolalar va o'quvchi yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli o'smir va qizlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda o'qitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda.

Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgarishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlay olmadi.

1.2. KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR

Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmayotir.

Mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog'lanmagan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya ahvoli qoniqarsizligicha qolmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalarning 25 foizigina maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olingan, xolos. Maktabgacha bolalar muassasalaridan va oiladan maktabga kelgan bolalarning tayyorgarlik darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Maktablarda va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubiyatidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki o'quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolayapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo'q. 9-11 sinflarni tamomlagan yoshlar mustaqil hayotda o'z o'rnini aniqlay olmaydi. Ularda o'zlariga ishonch shakllangan emas. O'rta maktab bitiruvchilarining 10 foizigina oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirmoqda, xolos.

Majburiy to'qqiz yillik ta'limga asoslangan o'n bir yillik umumiy o'rta ta'lim ilmiy asoslanmagandir, u o'quvchilarda kasbga yo'naltirish va ta'limning amaliy yo'nalganligi yetarli darajada bo'lishi hamda mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyati ko'nikmalari shakllanishini ta'minlamayapti. Har yili tayanch maktablarning 100 ming nafarga yaqin bitiruvchisi ishlab chiqarish sohasida hamda kasb-hunar ta'limini davom ettirish uchun talab etilmay qoldirilmoqda.

Ta'lim tizimidagi mavjud umumta'lim va kasb-hunar dasturlari o'rtasida uzviylik va vorislikning yo'qligi sababli tayanch va o'rta maktab bitiruvchilarida kasbga yo'naltirilganlik va mehnat faoliyati ko'nikmalari shakllanmay qolayapti. Natijada yigit va qizlar o'z qobiliyatlari, istaklari, ijodiy va mehnat moyilliklariga monand hayot yo'lini belgilab olishda jiddiy qiyinchiliklar sezmoqdalar.

O'quv jarayoni bilim darajasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o'quv dasturlari bo'yicha ishlash kabi

mexanizmlaridan yaxshi foydalanilmayapti. O'quv dasturlari mafkuraviy sarqitlardan to'liq xoli bo'lganicha yo'q, ularda ma'naviyat va axloq asoslarini o'rgatuvchi, xususiy, estetik bilimlarni beruvchi fanlarga yetarlicha o'rin berilmayapti.

Hunar-texnika bilim yurtlaridan yangi tipdagi ta'lim muassasalariga o'tish ko'proq og'izda bo'lib, amalda esa ularda ta'lim eskirib qolgan moddiy-texnika va o'quv-uslubiy bazasida, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tmagan o'qituvchi kadrlar bilan amalga oshirilmoqda.

Bir bosqichli oliy ta'lim mehnat bozori ehtiyojlarini, ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlarni va ilg'or xalqaro tajribani to'liq hajmda hisobga olmayotir. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlari yetarlicha mustaqillikka ega emas, ular kasbiy mehnat bozorining o'zgaruvchan sharoitlariga yaxshi moslashib bormayapti.

Ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy institutlar kadrlarni tayyorlash jarayoniga yetarli darajada qo'shilganlari yo'q. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish vazifalari belgilab olinmagan. O'quvchilarning bilim darajasini baholash tizimi ob'ektivlik va tezkorlikni ta'minlamaydi.

Kasb-hunar ta'limining obro'si hamda o'qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning ijtimoiy maqomi pasayib bormoqda. Ta'lim xizmati ko'rsatish va kadrlar tayyorlash sohasida marketing mavjud emas, ta'lim tizimini ko'p variantli moliyalash sxemasi ishlab chiqilmagan. Oliy malakali kadrlardan samarali foydalanilmayapti. Kadrlar bilimi va ular tayyorgarligining sifatini nazorat qilish hamda baholash tizimi qoniqarsiz ishlamoqda.

O'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi jami tarbiyachi va pedagoglarning atigi 20 foizi oliy ma'lumotlidir. Maktablarning o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi o'rtacha 93 foizni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich ayrim viloyatlarda 77-80 foizdan, muayyan fanlar bo'yicha esa 50 foizdan oshmaydi.

Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning o'rtacha yoshi "ulg'ayib" bormoqda. Respublika oliy o'quv yurtlarida 40 yoshga to'lmagan fan doktorlari jami fan doktorlarining 0,9 foizini, 50 va undan katta yoshdagilari esa 79 foizini tashkil etadi. Fan doktorlari ilmiy darajasiga tasdiqlanganlar o'rtacha 50, fan nomzodlari esa 36 yoshdadir.

1.3. ISLOH QILISH OMILLARI

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:

respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xomashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;

davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;

milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

2. MILLIY DASTURNING MAQSADI, VAZIFALARI VA UNI RO'YOBGA CHIQARISH BOSQICHLARI

2.1. Dasturning maqsad va vazifalari

2.2. Dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari

2.1. DASTURNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mazkur dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2.2. DASTURNI RO'YOBGA CHIQARISH BOSQICHLARI

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;

o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

ta'lim va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta'lim xizmati ko'rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo'lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta'lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-etti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va asliy jihatdan rivojlanganligini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o'quvchi o'rinlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta'minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta'lim xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi.

Milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan komp yuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinadi.

3. KADRLAR TAYYORLASHNING MILLIY MODELI

3.1. Shaxs

3.2. Davlat va jamiyat

3.3. Uzluksiz ta'lim

3.4. Kadrlar tayyorlash tizimida fan

3.5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konventsiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

3.1. ShAXS

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstituttsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni

namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari orqali sifatli ta'lim olish, shuningdek ta'lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

3.2. DAVLAT VA JAMIYAT

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat va jamiyat quyidagilarga, chunonchi:

Fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlari ro'yobga chiqarilishiga;

Majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishga;

Davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim olish huquqiga;

Davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

Ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;

Sog'liq va rivojlanishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim olishiga kafolat beradilar.

3.3. UZLUKSIZ TA'LIM

3.3.1. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari

3.3.2. Uzluksiz ta'limni islox qilish yo'nalishlari

3.3.3. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

3.3.1. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish printsiplari quyidagilardan iborat:

ta`limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta`lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta`limning demokratlashuvi ta`lim va tarbiya uslublarini tanlashda o`quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta`limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o`tilishi;

ta`limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta`limga nisbatan bo`lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta`minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o`zaro munosabatlarining uyg`unlashuvi;

ta`limning ijtimoiylashuvi ta`lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma`naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta`limning milliy yo`naltirilganligi ta`limning milliy tarix, xalq an`analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg`unligi, O`zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta`limni milliy taraqqiyotning o`ta muhim omili sifatida e`tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

ta`lim va tarbiyaning uzviy bog`liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo`naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta`limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

3.3.2. Uzluksiz ta`limni isloh qilish yo`nalishlari

Uzluksiz ta`lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

ta`lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o`qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

davlat va nodavlat ta`lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

ta`lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta`lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta`lim va kasb-hunar ta`limi dasturlarini tubdan o`zgartirish;

majburiy umumiy o`rta ta`limdan o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limiga o`tilishini ta`minlash;

maxsus, kasb-hunar ta`limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o`quv muassasalarini vujudga keltirish;

ilg`or texnologiyalarni keng o`zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o`zgarishlar, chet el investitsiyalari ko`mlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog`liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo`yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

milliy mustaqillik printsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta`limning barcha darajalari va bo`g`inlarida ta`lim oluvchilarning ma`naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

ta`limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta`lim muassasalarini mintaqalashtirish;

ta`lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma`naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

ta`lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

ta`lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta`minlash mexanizmlarini shakllantirish;

uzluksiz ta`limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish ;

ta`lim va ilm-fan bilan bog`liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

tub yerli millatga mansub bo`lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o`z ona tillarida ta`lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

ta`limning barcha darajalarida ta`lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta`limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

3.3.3. Uzluksiz ta`lim tizimi va turlari

Maktabgacha ta`lim

Umumiy o`rta ta`lim

O`rta-maxsus, kasb-xunar ta`limi

Oliy ta`lim

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Maktabdan tashqari ta`lim

Uzluksiz ta`lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta`lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta`lim dasturlarining izchilligi asosida ta`minlanadi va quyidagi ta`lim turlarini o`z ichiga oladi:

maktabgacha ta`lim;

umumiy o`rta ta`lim;

o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi;

oliy ta`lim;

oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta`lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o`ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to`qqiz yillik umumiy o`rta hamda uch yillik o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta`lim dasturlaridan o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi dasturlariga izchil o`tilishini ta`minlaydi.

Umumiy ta`lim dasturlari: maktabgacha ta`lim, boshlang`ich ta`lim (I-IV sinflar), umumiy o`rta ta`lim (I-IX sinflar), o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini qamrab oladi.

Maktabgacha ta`lim

Maktabgacha ta`lim bola sog`lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta`minlaydi, unda o`qishga intilish hissini uyg`otadi, uni muntazam ta`lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta`lim bola olti-etti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`lim maqsadi va vazifalarini ro`yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo`ladi:

malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;

zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Umumiy o'rta ta'lim

To'qqiz yillik (I-IX sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

maktabning I-IX sinflari doirasida sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bog'liqlik hisobga olinishi lozim;

yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

hududlarning jo'g'rofiy va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta'lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;

o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvini joriy etish;

ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash;

o'quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus,

kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shuhullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

hududlarning jo'g'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Oliy ta'lim

Oliy ta`lim o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy ta`lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassisliklar yo`nalishi bo`yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta`lim muddati kamida to`rt yil davom etadigan tayanch oliy ta`limdir.

Bakalavrluk dasturi tugallanganidan so`ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo`yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug`ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo`yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta`lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta`limdir.

"Magistr" darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intixosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug`ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy ta`lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

bakalavriat va magistratura uchun davlat ta`lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

oliy ta`lim muassasalari uchun professor-o`qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan chet ellardagi yetakchi o`quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

oliy ta`lim muassasalarida tarkibiy o`zgartishlar o`tkazish;

oliy ta`lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

ta`limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta`sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

o`qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distantsion ta`lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o`zlashtirish;

yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o`qitishni jadallashtirish;

xalqning boy ma`naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta`limning insonparvarlik yo`nalishini ta`minlash.

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo`lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta`lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`limni oliy o`quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad`yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olish mumkin. Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim bosqichlari (aspirantura, doktorantura) dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko`ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`limni qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish tadbirlari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

“Ta`lim to`g`risida”gi Qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o`tkazish tizimini takomillashtirish;

kasb ta`limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni hamda ilg`or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

rivojlangan mamlakatlarning ilg`or ta`lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo`nalishlar bo`yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlanishi uchun sharoitlar yaratib berish;

fan, texnologiya va ta`lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko`nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta`lim muassasalaridagi o`qish natijalariga ko`ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;

yuqori malakali o`qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to`ldirib borishni ta`minlash;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta`minlovchi normativ bazasini yaratish;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta`lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o`tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta`minlovchi davlat va nodavlat ta`lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko`maklashish;

professional treningning ilg`or texnologiya va uskunalarini, shuningdek murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o`zlashtirib olish.

Maktabdan tashqari ta`lim

Bolalar va o`smirlarning ta`limga bo`lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo`sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta`lim muassasalarini tashkil etadilar.

Maktabdan tashqari ta`limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

ta`lim berish va kamol toptirishga yo`naltirilgan xizmatlar ko`rsatuvchi muassasalar tarmog`ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko`paytirish;

milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

3.4. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA FAN

Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni o'z ichiga oladi, bu sohada:

tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish, o'rganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi:

oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan ta'minlash infrastrukturasi vujudga keltiriladi, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish maqsadida bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo'ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarur:

ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini samarali tarzda bajarishni ta'minlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro'yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro' e'tibori va ijtimoiy maqomini oshirish;

mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini faollashtirish, ta'lim sohasi va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ilmiy yutuqlar va olimlar bilan o'zaro almashinuv jarayonini kuchaytirish;

fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta'sis etish, maxsus stipendiyalar sonini ko'paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko'rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

3.5. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA ISHLAB CHIQRISH

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi, chunonchi u:

turli saviya va malakadagi mutaxassislarga bo'lgan talab-ehtiyojni shakllantiradi;

o'z ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliya, kadr resurslari hamda kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni berish bilan uzluksiz ta'lim tizimiga ko'maklashadi;

muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarni maqsadli tayyorlashni, shuningdek turli tip va darajadagi o'quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

ta'lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

ta'limni korxonadagi unumli mehnat bilan, shu jumladan ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

ta'lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash);

ishlab-chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ishlab chiqarishning ietisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta'lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

ishlab chiqarish amaliyotini o'tish uchun ta'lim oluvchilarni ish joylari bilan ta'minlash;

o'zaro integratsiyalangan ta'lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblardan jihatlash.

4. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

4.1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash

4.2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

4.3. Ta'lim jarayonini mazmunan islox qilish

4.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar

4.5. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar

- 4.6. Ta`lim tizimini boshqarish
- 4.7. Kasb-xunar ta`limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish
- 4.8. Ta`lim tizimini moliyalash
- 4.9. Moddiy-texnika ta`minoti
- 4.10. Ta`lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish
- 4.11. Ta`lim xizmati ko`rsatish bozorini rivojlantirish
- 4.12. Ta`lim soxasida ijtimoiy kafolatlarni ta`minlash xamda bu soxani davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash
- 4.13. Fan bilan ta`lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish
- 4.14. Ishlab chiqarish va ta`lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish
- 4.15. Ta`lim va kadrlar tayyorlash soxasidagi xalqaro xamkorlik

Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi ustuvor yo`nalishlarni qamrab oladi:

4.1. TA`LIMNING UZLUKSIZLIGINI TA`MINLASH

Ta`limning o`z ichiga maktabgacha ta`lim, umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta`limining bakalavrlar va magistrLAR tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo`yicha raqobatbardosh ta`lim muassasalari vujudga keltiriladi.

Ta`lim muassasalarini hududiy yo`nalishga o`tkazish va tarkibiy tuzilmasini o`zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta`lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta`lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta`minlanadi.

4.2. PEDAGOG VA ILMIY-PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta`limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko`zlovchi tizimi vujudga keltiriladi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo`llab-quvvatlash ta`minlanadi.

Oliy ta`lim muassasalarida davlat ta`lim standartlariga mos yuqori malakali o`qituvchilar tayyorlash bo`yicha maxsus fakul tetlar, shuningdek respublika viloyatlarida umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi uchun o`qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yuzasidan maxsus markazlar tashkil etiladi.

4.3. TA`LIM JARAYONINI MAZMUNAN ISLOX QILISH

Kadrlarni o`qitish va tarbiyalash milliy tiklanish printsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma`naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo`naltirilgan ta`limning mazmuni davlat ta`lim

standartlari asosida isloh qilinadi. Ta`lim oluvchining shaxsiga, unda ta`lim va bilimlarga bo`lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg`usini shakllantirishga alohida e`tibor beriladi.

